

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIV TA'LIM VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**  
**PEDAGOGIKA FAKULTETI**  
**“UMUMIY PEDAGOGIKA” KAFEDRASI**

**O'QUVCHILARNI BARKAMOL AVLOD QILIB TARBIYALASHDA**  
**O'QUV FANLARINING O'RNI**

## **BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Bajardi:** “Boshlang'ich sinf va sport tarbiyaviy  
ish” ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi 4 kurs  
talabasi **Xurramov Xasan**\_\_\_\_\_

**ILMIY RAHBAR:**

**p.f.n. Bozorova M.Q.**\_\_\_\_\_

**Bitiruv malakaviy ish kafedradan dastlabki himoyadan o'tdi.**

\_\_\_\_\_sonli bayonnomasi “ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_2013 yil

**Termiz - 2013 y**

## **REJA:**

### **KIRISH.**

#### **1-BOB. BARKAMOL AVLOD TARBIYASI MUAMMOSI.**

1.1. Barkamol avlod taraqqiyoti dasturi.

1.2. Ta'lim-tarbiyaning zamonaviy tashkiliy shakllari.

#### **2-BOB. BARKAMOL AVLOD TARBIYASIDA O'QUV FANLARIDAN FOYDALANISHNING SHAKL VA USULLARI.**

2.1. Barkamol avlod tarbiyasi istiqbollari.

2.2. O'quvchilarning barkamol avlod bo'lib ulg'ayishida AKT'ning o'rni

2.3. O'quv fanlarida interfaol usullardan foydalanish orqali barkamol avlod qilib tarbiyalash.

### **UMUMIY XULOSA VA TAVSIYALAR**

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

### **ILOVALAR**

## **Kirish**

### **Mavzuning dolzarbligi:**

Mamlakatimizda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”dagi raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash jarayoni o’ziga xos murakkablik xususiyatiga egadir. Kasb egasi yoki malakali mutaxassis kasb-hunar kolleji yoki oliy ta’lim muassasasida tayyorlanadi desak xato o’ylagan bo’lamiz, chunki inson psixologiyasi o’ta murakkab tuzilishga egaligi bir kasbning mohir ustasi bo’lishi uchun yillar mobaynida tinimsiz izlanishi bilan bir qatorda mustahkam bilim ham mavjuddir.

Shu nuqtai nazardan qaraydigan bo’lsak o’quvchining kelajakda qanday shaxs va qanday kasb egasi bo’lishi albatta o’quv fanlariga mana shu fanlarni o’qish jarayonida egallagan bilimlariga bog’liqdir. Zero, mamlakatimiz Prezidenti ta’kidlaganidek: “Erkin fuqaro ma’naviyatini, ozod shaxsni shakllantirish masalasi oldimizda turgan eng dolzarb mazifadir. Boshqacha aytganda, biz o’z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofida sodir bo’ladigan, voqeya – hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashadigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg’un holda ko’radigan erkin, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalashimiz kerkak”<sup>1</sup>.

Bizga ma’lumki har bir sinfdagi o’quv fanlarini o’qitish Davlat ta’lim standartiga muvofiq ishlab chiqilgan namunaviy o’quv rejaga bog’liq holda belgilanadi.

Ona tili va adabiyot, matematika fanlari ta’limning barcha bosqichlarida muntazam o’qitilishi nazarda tutilgani, hamda ayrim fanlar fakultativ kurs nuqtai-nazaridan o’qitiladi. Fanlar kecha yoki bugun fan sifatida shakllanmagan. Insoniyatning yashashi turmush tarziga ishlab chiqarish jarayonlariga bo’lgan munosabatlariga, shuningdek bugun er yuzida 500 dan ortiq kasb-hunarning yo’qolishi, shu bilan bir qatorda 350-400 ga yaqin yangi kasblarning paydo bo’layotganligi, ham o’quv fanlarining nufuzini belgilab beradi.

Mamlakatimizdagi tub islohotlar markazida barkamol avlodnivoyaga etkazish muammosi turgani barchamizga ma’lumdir. Barkamol avlodni voyaga

---

<sup>1</sup>Karimov I.A. O’zbekiston XXI asrga intilmoqda. – Toshkent, “O’zbekiston” nashriyoti, 2000 yil

etkazish ishlari oiladagi ma'naviy muhit va ota-onaning tarbiyachilik san'atidan boshlanganligi hamda ta'lim maskanlarida uzluksiz davom etadi.

Barkamol avlod tarbiyasi bilan shug'ullanayotgan (o'tmishi va hozirda muntazam) ta'lim muassasalarida fanlarni o'qitish jarayonida hozir ham e'tibor ayrim joylarda etarli emasligi ko'rinib qolmoqda

Yana bir jihat borki qaysi sinfda qaysi fan va qancha fan o'qitilishi ilmiy jihatdan mukammal tahlil qilinmagan. Shunday bo'lsada o'qitilayotgan fanlar zamon bilan hamnafas rivojlanayotgani ayni haqiqat. Bunga misol qilib prezidentimizning 2012 yil 10 dekabrda "Ta'lim muassasalarida chet tillarini" o'qitilishi to'g'risidagi farmonini misol qilishimiz mumkin.

Umuman olganda komil inson, barkamol avlod tarbiyasi mustaqil davlatimizda eng muqaddas vazifalardan biri sifatida har bir ta'lim maskanida o'ziga xos yo'nalishlarni rivojlantirishni taqozo etmoqda.

Yuqoridagi fikrlarga tayangan holda bitiruv malakaviy ishimiz mavzusini "O'quvchilarni barkamol avlod qilib tayyorlashda o'quv fanlarining o'rni" deb nomladik.

**Bitiruv malakaviy ishimiz maqsadidan** kelib chiqib quyidagi vazifalarni bajarishni maqsadga muvofiq deb hisobladik.

Boshlang'ich sinflarning o'quv fanlarini mavzu nuqtai nazaridan o'rganish, tahlil qilish.

Barkamol avlod tarbiyasida har bir o'quv fanining o'rmini aniqlash.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quv fanlarini tarbiyaviy imkoniyatlarini munosabatlarini aniqlash.

Biz o'z bitiruv malakaviy ishimizga tegishli adabiyotlarni o'rganish jarayonida ushbu muammo bilan bir qator pedagog-psixolog olimlarning ishlarini aytib o'tishimiz lozim.

**Bitiruv malakaviy ishimizning predmetini** – boshlang'ich sinf o'quvchilarini barkamol avlod qilib tarbiyalashda o'quv fanlarining imkoniyatlarini aniqlash usullari, shakllari.

**Bitiruv malakaviy ishning ob'ektini** – boshlang'ich sinflar o'quv fanlarini o'qitish jarayoni tashkil etdi.

**Bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligi** shundaki, boshlang'ich sinf o'quv fanlarining barkamol avlodni tarbiyalash jarayonidagi o'rnini aniqlash orqali boshlang'iya ta'lim jarayonidagi o'qitish tarbiyalash imkoniyatlarini o'rganish, bu orqali boshlang'ich sinf o'qituvchilariga amaliy yangilik berilishi.

Shuningdek mazkur muammo yuzasidan bakalavriyatning boshlang'iya ta'lim va sport tarbiyaviy ish ta'lim yo'nalishida ilk bor bitiruv malakaviy ish sifatida o'rganilayotganligidadir.

**Malakaviy ishning metodologik asosini**, “Inson eng oliy qadriyat” degan falsafiy ta'limot, shuningdek, Prezidentimizning “Yuksak ma'naviyat egilmas kuch” asari, barkamol avlod tarbiyasi to'g'risidagi qarorlar, qonunlar tashkil etdi.

**Bitiruv malakaviy ishimizning amaliy ahamiyati** shundaki, boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quv biluv faoliyatini rivojlantirishning samaradorligini erishishda o'quv fanlarining o'rnini belgilash bilan o'qituvchilarga amaliy ko'mak berish imkoniyati yaratilyapti.

Malakaviy ishimizning pedagogikaning kuzatish, suhbat, amaliy-tajriba kabi bir qator tadqiqot usullari bilan o'quv adabiyotlarni qiyosiy tahlil asosida o'rganish metodlaridan foydalandik.

Malakaviy ishimiz kirish , ikki bob, to'rt paragraf, umumiy xulosa va tavsiyalar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

## **I-BOB. BARKAMOL AVLOD TARBIYASI MUAMMOSI.**

### **I.1. Barkamol avlod taraqqiyoti dasturi.**

O`zbekiston uchun o`tgan asrning 80-yillari oxiri, 90-yillari boshi aynan shunday tarixiy bir davr bo`ldi. Prezidentimiz Islom Karimovning mamlakatimiz mustaqilligining 20 yilligi arafasida nashrdan chiqqan "O`zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" kitobida respublika uchun shunday bir murakkab davrda kun tartibiga mustaqillikka erishish g`oyasi qat'iy qilib qo`yilgani va bu yo`lda qanchalik ulkan ishlar amalga oshirilganligi tarixiy hujjatlar asosida ochib berilgan.

Hassos shoir bobomiz Alisher Navoiy o`z davrida Saxo shohdin elga matlub erur, siyosat ham o`z o`rnida xo`b erur, deya o`zi orzu qilgan yurt peshvosiga ta'rif bergan edi. Besh yuz yilcha vaqt o`tibdiki, aytilgan bu fikr bugun ham o`z ahamiyatini yo`qotmagan. Zero, insoniyat o`z tarixini yaratishda davom etmoqda. Yer yuzida davlatlar ko`p, xalqlar ko`p va rahnamolar ko`p. Biroq, ko`p yillar davomida istibdod qurshovida yashagan xalqning o`z erkini qo`lga kiritish, o`z taqdirini o`zi belgilash huquqiga ega bo`lishi uchun kurash kechayotgan keskin bir davrda shu yurt porloqistiqboli, jafokash eli manfaatini himoya qilishdek sinov har qanday xalq, uning rahnamosi boshiga tushavermaydi. Tarixning bu murakkab sinovidan shoir aytganidek, shu yo`lda saxovat sifatida o`z hayotini, borlig`ini baxshida etgan insongina yuzi yorug` bo`lib chiqishini bugungi hayotimiz ko`rsatib turibdi. Ayniqsa, barkamol insonni tarbiyalash g`oyasi hozirgi davrda milliy falsafamizning asosiy vazifalaridan biri bo`lib qolmokda. I.Karimovning 2005 yil talabalar shaharchasida O`zbekiston Milliy universiteti talabalari bilan suhbatida falsafa hamma fanlarning otasi, hayot - bu dialektikadir, -deb ta'kidladilar. Zero, barkamol insonni tarbiyalash hamda jamiyat taraqqiyoti bir-biri bilan uzviy aloqada. Bu jarayonni bilish esa, inson tafakkurining qadimgi davrlaridan boshlab, bosqichma-bosqich rivojlanishi va shu bilan birga insonning

ham tobora shakllana borganligi haqida to'la tasavvur hosil qilishga imkon beradi<sup>1</sup>.

O'zbekiston uchun o'tgan asrning 80-yillari oxiri, 90-yillari boshi aynan shunday tarixiy bir davr bo'ldi. Prezidentimiz Islom Karimovning mamlakatimiz mustaqilligining 20 yilligi arafasida nashrdan chiqqan "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" kitobida respublika uchun shunday bir murakkab davrda kun tartibiga mustaqillikka erishish g'oyasi qat'iy qilib qo'yilgani va bu yo'lda qanchalik ulkan ishlar amalga oshirilganligi tarixiy hujjatlar asosida ochib berilgan.

Kitob bilan tanishar ekanmiz, o'sha paytda mamlakatda nochor ijtimoiy va iqtisodiy ahvol, jamiyatda tushkunlik va tahlikali muhit hukm surayotgan og'ir bir vaziyatda aholining turmush darajasini ko'tarish bilan bog'liq kechiktirib bo'lmaydigan muammolar qatorida har doim ham yoshlar ta'lim-tarbiyasi, kadrlar tayyorlash masalasi hamda ma'naviyatni yuksaltirish, yangi ijtimoiy ongni shakllantirish g'oyasi davlat siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lib turganini anglaymiz.

Mana shu g'oyalar tadrijiy ravishda rivojlantirilib mustaqil mamlakatimizning buyuk kelajagini ta'minlaydigan muhim omil sifatida ta'lim-tarbiya, kadrlar tayyorlash sohasini mutlaqo yangi asosda tashkil etishga xizmat qilayotgan "Ta'lim to'g'risida"gi hamda "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to'g'risida"gi qonunlar qabul qilindi. Mazkur qonun hujjatlarida inson manfaatlari, ya'ni uning o'z ijtimoiy mohiyatini, o'zligini anglashi, muntazam rivojlanib borishi, imkoniyatlarini to'liq ishga solishi va farovon hayot kechirishi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish ustuvorlik kasb etdi.

Muntazam davom etadigan ushbu jarayonga hamohang tarzda maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta'limdan iborat uzluksiz ta'lim tizimi joriy

---

<sup>1</sup> Jakbarov M. Komil inson g'oyasi: tarixiy-falsafiy tahlil. -T.: Abu Ali ibi Sino, 2000. -B. 3; Pedagogika tarixi (Pedagogika oliy o'quv yurtlari va dorilfununlar talabalari uchun o'quv qo'llanma) G' Hoshimov . va boshqalar.

etildi.

Xo`sh, bu yangilikning inson manfaatlari, ya'ni uning taqdiri, qolaversa mamlakat taraqqiyoti bilan qanchalik bog`liqligi bor? Biror bir narsaning boshqasidan afzalligi yoki aksincha ekanligini anglash uchun ularni o`zaro qiyoslashdan bo`lak samarali usul bo`lmasa kerak. Biz ham shu yo`ldan boramiz: yaqin o`tmishda mavjud bo`lgan ta'lim-tarbiya tizimi bilan hozirda hayotga tobora chuqur tatbiq etilayotgan ta'limning milliy modelini solishtiramiz.

Ma'lumki, sobiq sho`ro tuzumi davrida ta'lim tizimi shunday tashkil etilgan ediki, guyoki hamma yoppasiga ta'lim oladi, lekin har bir shaxsning kelgusi hayotida olgan bilimlari qanchalik ahamiyatga ega bo`ladi, uning jamiyatdan munosib o`rin egallashi qanday kechadi degan savollar ochiq qolgan edi.

Tasavvur qiling, o`quvchi 10 yil o`qib maktabni tugatgach uning oldida ikkita yo`l turardi. Birinchisi - oliy ta'limda o`qishni davom ettirish, shuningdek, tor doirada ixtisoslashgan bilim yurtlarida o`qish (bunday imkoniyatga jami bitiruvchilarning 10 foizigina ega bo`lgan). Ikkinchi yo`l - to`g`ridan to`g`ri mehnat faoliyati bilan shug`ullanish. Biror bir kasb-hunarni egallamagan (o`n yillik majburiy ta'limda bu masala umuman nazarda tutilmagan) yosh yigit-qizning qaerga borib, nima ish qilishini esa o`zingiz tasavvur etavering. O`sha davrda mavjud bo`lgan, xalq tilida SPTU deya nom olgan bilim yurtlariga esa odamlarning munosabati salbiy edi. Shu bois o`quvchi yomon o`qisa maktab ma'muriyati uni "SPTUga haydalan", deya qo`rqitardi. Nega? Chunki avtoritar uslubga asoslangan maktabda "yaxshi o`qimagan", "tartibsiz" bolalar 8-sinfdan so`ng SPTUga jo`natilardi va ularga qabul shu "mezonlar" asosida amalga oshirilardi. Mana sizga insonning kelajak taqdiriga munosabat. O`sha davrda o`smirlar o`rtasida sodir etilgan jinoyatlar ko`rsatkichida SPTUda o`qiydigan bolalar salmoqli o`rin tutganligi ham haqiqat edi.

Yoshlar o`z kelajagini aniq tasavvur eta olmagan hamda o`zlariga nisbatan jamiyatda ishonchsizlik hukmron bo`lgani oqibatida jur'atsiz, befarq

bo`lib, boqimandalik kayfiyatiga tushib qolgan edi. Ota-onalar "ertaga bir gap bo`lar, tezroq bolamning boshini ikkita qilay", degan fikrda bekorchi o`g`lini barvaqt uylantirish, qizini tezroq turmushga chiqarish payida bo`lardi. Oila, uning mas'uliyati, mustaqil yashash haqida yetarli tushunchaga ega bo`lmagan yigit oilasi bilan yana ota-onasi qaramog`ida qolaverardi. Oilalarda ko`plab farzandlar bir kishining haminqadar topganiga qarab qolganligi oqibatida turli etishmovchiliklar yuzaga kelar, kishilarning ijtimoiy ahvoli borgan sayin yomonlashib borardi. Prezidentimiz o`zining "O`zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" kitobida o`sha davrda yuzaga kelgan og`ir ahvolga baho berar ekan, "Ijtimoiy infrastruktura tarmoqlari: sog`liqni saqlash, xalq ta'limi, maktabgacha bolalar muassasalari juda og`ir ahvolga tushib qolgan. Maktab va kasalxonalarning 60 foizi nobop binolarda joylashtirilganini aytishning o`zi kifoya. Juda o`tkir iqtisodiy va ijtimoiy muammolar ro`yxatini yana davom ettirish mumkin. Buni avvalo shundan ko`rsa bo`ladiki, insonning har tomonlama uyg`un kamol topishi, uning shaxs sifatida ma'naviy rivojlanishi u yoqda tursin, ko`pincha yashash uchun kerak bo`ladigan eng oddiy narsalar ham yetishmayapti", deya kuyunib ta'kidlagan. Bu so`zlardan ma'lum bir mamlakatning rivoji yoki tanazzulida ijtimoiy soha, ayniqsa ta'lim-tarbiyaning o`rni qanchalik hal etuvchi kuchga ega ekanligini anglab yetish qiyin emas. Yurtboshimiz I.A.Karimov ta'biri bilan aytganda, "...bizning mamlakatimizda amalga oshirilayotgan Dastur – bu boshqa modellarni qandaydir takrorlash yoki nusxa ko`chirish emas, aksincha, birinchi navbatda, rivojlangan dekmokratik davlatlarda to`plangan tajribani o`zida mujassam etgan va ayni paytda shiddat bilan o`zgarib borayotgan hozirgi zamon talablarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan dasturdir".<sup>2</sup>

Mamlakatimizning mustaqil taraqqiyot yo`lini kuzatar ekanmiz, davlatimiz iqtisodiy jihatdan mustahkam bo`lib borgani sayin, uning ta'lim-

---

<sup>2</sup> Prezident I.A.Karimovning "Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti" mavzusidagi Halqaro konferentsiyada so`zlagan nutqidan. – Toshkent, 2012 yil, 17 fevral.

tarbiya, ma'naviyat sohasiga qo'yayotgan sarmoyasi hajmi ortib borayotganini kuzatish mumkin. Natijada shaxsning o'z qiziqishlari, iqtidori va qobiliyatidan kelib chiqqan holda to'laqonli rivojlanishi, o'z imkoniyatlarini to'liq ishga solishi uchun zarur shart-sharoit yaratilmoqda. Shu nuqtai nazardan o'tmishdan saboq chiqarib, bugungi hayotiy talablar hisobga olinib hamda mamlakatning kelajak taqdiri o'ylangan holda ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilgan ta'limning milliy modeli imkoniyatlarini sanab o'tsak. Ta'limning milliy modeli shaxsning yosh xususiyatini hisobga olgan holda bosqichma-bosqich, muttasil rivojlanib borishini kafolatlaydi. Maktabgacha ta'limda bolaning salomatligiga, jamiyatda yashashning ilk ko'nikmalarini o'zlashtirishiga hamda ongli ravishda maktab ta'limiga tayyor bo'lib borishiga e'tibor qaratiladi. Bu borada ham o'ziga xos raqobat muhiti yaratilganligi, ya'ni rivojlanishda tengdoshlaridan ilgarilab ketgan bolaning bir yil oldin, ya'ni 6 yoshdan maktabga qabul qilinishi ularda ichki bir mas'uliyat, intilish va ishtiyoqni paydo etadi. Hozirda 1-sinfga qabul qilinayotgan bolalar umumiy soniga nisbatan 6-yoshdan maktabga borayotganlar 10-15 foizni tashkil etmoqda. Mazkur jarayon ta'limning milliy modeli tuzulmasi hamda talablari ota-onalarning o'z farzandlarini maktab ta'limiga tayyorlash borasidagi mas'ulligini to'liq anglab yetishlariga, natijada oila va jamiyatning uyg'un holda taraqqiy etishiga qanchalik ijobiy turtki berganligini ko'rsatib turibdi. Umumiy o'rta ta'lim ham mazmunan o'quvchilarning turli qiziqish va imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, rivojlantirish hamda ularning kelajak yo'lini to'g'ri tanlashi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratganligi bilan ahamiyatli. Mazkur ta'lim turida o'qish jarayonida o'quvchilarni keyingi ta'lim turiga tayyorlash - kasbga yo'naltirish ishlari ham yo'lga qo'yilgani bois yoshlarning kelajakda qanday kasbni tanlashi borasidagi mustaqil fikri shakllandi, o'z oldiga qo'ygan aniq maqsad sari qatiyat bilan intilish hisi kuchaydi. Turli fanlarni chuqur o'rgatishga ixtisoslashgan davlat umumta'lim maktablari, san'at, musiqa, sport yo'nalishida ta'lim beradigan maxsus ta'lim muassasalari esa alohida iqtidorga ega bo'lgan yoshlarning ehtiyojiga mos tarzda tashkil etilgan. Bu - shaxsning cheksiz imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, intellektual salohiyatini oshirish hamda uning

mamlakat taraqqiyotiga munosib hissa qo`shishini ta'minlashga zamin hozirlaydi. O`rta maxsus, kasb-hunar ta'limi ta'limning milliy modeli gavhari sifatida tan olinmoqda. Negaki, biz yuqorida sobiq sho`ro tuzumidagi ta'lim tizimining shaxs taqdiriga befarqligini ko`rsatib o`tgan edik. Mazmun hamda shakl jihatdan mutalaqo farqli tarzda ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilgan bu ta'lim turi aynan bu kabi salbiy holatlarga to`liq barham berganligi bilan juda katta ahamiyatga ega.

Birinchidan, majburiy bo`lgan o`rta maxsus, kasb-hunar ta'limiga umumiy o`rta ta'limni tugatgan barcha bitiruvchilar qamrab olinishi ta'minlandi. Ikkinchidan, o`quvchilarda ta'limning keyingi bosqichini o`z qiziqish, iqtidori va qobiliyatidan kelib chiqqan holda tanlash imkoni paydo bo`ldi. Uchinchidan, kasb-hunar kollejlarda 3 yil ta'lim olish jarayonida ular tanlagan yo`nalishi bo`yicha ma'lum bir kasb yoki hunarga oid chuqur bilim, ko`nikma, malakaga ega bo`lib, tegishli korxonada to`laqonli faoliyat yuritish huquqini beradigan maxsus diplomga, turdosh bo`lgan bir nechta mutaxassislikka ega bo`ladi. Agar u o`zi tanlagan yo`nalish bo`yicha ta'lim olishni davom ettiraman desa, oliy ta'lim muassasasiga kirish imkoniyati ham bor. Endi, avvalgi "bitiruvchi" bilan hozirda 12 yilda aniq bir kasb-hunarni egallab chiqayotgan mutaxassis imkoniyatlarini ko`z oldingizga keltiring. Ularni birinchi galda ta'lim olish orqali o`z kasbiy mavqieni oshirib borish, jamiyatdan munosib o`rin egallash masalasi qiziqtirimoqda. Eng zamonaviy texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish korxonalarida mehnat qilayotgan, murakkab mashinalarni mohirlik bilan boshqarayotgan, qulayliklardan foydalanib o`z tadbirkorlik faoliyatini yo`lga qo`yayotgan yigit-qizlar o`sib kelayotgan uka-singillari uchun chin ma'noda ibrat namunasini ko`rsatishmoqda. Bularning bari yaratilgan imkoniyatlar yoshlar ongida, tasavvurida ijobiy o`zgarishlar hosil qilib, ularning hayotga bo`lgan munosabatlarini tubdan yangilaganini va bu jarayon kelgusida bundan-da keng miqyosda davom etajagini anglatib turibdi. Ta'limning milliy modeli har bir shaxsga o`z faoliyat doirasini kengaytirish, yanada rivojlantirib borish uchun teng

shart-sharoit yaratadi. Akademik lisey ta'limida o`quvchi o`z tanlagan sohasi bo`yicha keyinchalik oliy ta'lim muassasasida tahsilni davom ettirish maqsadida chuqur bilim, ko`nikma va malakaga ega bo`ladi. Dunyoning iqtisodiyoti jadal rivojlanayotgan mamlakatlari qatoridan o`rin olgan O`zbekiston iqtisodiyotida jiddiy tarkibiy va sifat o`zgarishlari, faoliyat ko`rsatayotgan korxonalarni modernizasiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash hamda zamonaviy yuksak texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishni kengaytirish jarayonlari davom etayotgan bir paytda yetuk kadrlarga bo`lgan ehtiyoj tobora ortib boraveradi. Taraqqiyotning bunday talablariga, mehnat bozorida turli malakaga ega kadrlarga bo`lgan doimiy ehtiyoj hisobga olingan holda tashkil etilgan bakalavriat va magistraturadan iborat ikki bosqichli oliy ta'lim tizimi hozirda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash borasida faoliyat yuritmoqda. Bakalavr darajasiga ega izlanuvchi yoshlarimiz ma'lum bir muddat amaliy mehnat faoliyatidan so`ng magistratura ta'limiga qaytish imkoniyatiga egadirlar. Magistratura ta'limining o`ziga xosliklaridan biri - uning mustaqil ilmiy faoliyatga yo`naltirilganligidir. Undan so`ng davom etadigan ta'lim turi - oliy o`quv yurtidan keyingi ta'limda egallagan sohasi bo`yicha yanada chuqurroq bilimlarni o`zlashtirish, dolzarb hisoblangan muammolar yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish hamda olingan natijalarni amaliyotga tatbiq etishga ahd qilgan yoshlar uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. Barcha sohalarda rivojlanish jadal sur'atlar bilan ketayotgan bir sharoitda mutaxassislarning zamonaviy bilimlar, ko`nikma va malakalarni muntazam o`zlashtirib borishlari talab etiladi. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimi bunday ehtiyojlarni qondirish, amaliy faoliyat bilan mashg`ul bo`lgan xodimlar kasbiy salohiyatining muntazam ravishda yuqori darajada bo`lishini ta'minlashga qaratilgan. Tabiatan shundayki, inson qadriyatlarini tizimida har bir shaxs uchun o`z imkoniyat, qobiliyatini yuzaga chiqarish, bir so`z bilan aytganda, o`zligini namoyon etish ustuvor ahamiyatga ega. Buning uchun yetarli darajada shart-sharoit, sog`lom muhit yaratilgandagina, inson o`z kuch-qudratini ezgu ishlar yo`lida safarbar etadi. Ta'limning milliy modeli zamirida insonning aynan shu ehtiyojini qondirish uchun kerak bo`ladigan

barcha imkoniyatlarni yaratish maqsadi mujassam. Maktabdan tashqari ta'lim turi har bir shaxsning individual qiziqish, iqtidor va qobiliyatiga ko'ra o'zini yanada rivojlantirishi uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratganligi bilan ahamiyatlidir. Olaylik, farzand dunyoga keldi. Albatta farovon oilada, tinch, barqaror yurtda bu voqea chinakam bayramga aylanadi. Ota-ona bolasini sog'-omon unib-o'ssin, o'qib-o'rgansin, el ichida o'z o'rnini topsin, farzandimning kamolini ko'ray, deya ko'p orzu-niyatlar qiladi va bu yo'lda barcha imkoniyatlarini ishga soladi. Ta'lim-tarbiya sohasida olib borilayotgan islohotlar, bunyodkorlik ishlarining xalqimizni shunday ezgu maqsadlar sari harakatlantirib yuborganini asosiy natijalardan biri, desak mubolag'a bo'lmaydi. Birgina misol: Prezidentimizning adabiyotga, jumladan bolalar adabiyotiga e'tibori natijasida "Birinchi kitobim" loyihasi asosida 2010 yili 5 nafar yosh ijodkorning ilk kitobi nashr etilgan bo'lsa, 2011 yili 11 nafar iqtidorli yoshlarning birinchi kitobi nashrdan chiqdi. Yoshlarimiz tafakkuridagi o'zgarishlarning yorqin ifodasi bo'lgan ijod namunalarida ularning ongi taraqqiy etgani, badiiy va estetik didi yuksalganligini O'zbekiston Xalq shoiri Anvar Obidjon shunday ifodalaydi: "Do'rmon bog'iga kelgan yoshlarning she'riy, nasriy to'plamlarini ko'zdan kechirayotib, xayolimda bir savol tug'ildi: "Men shu yoshda qanday yozgan edim?". Bunday solishtirib ko'rsam, seminarchilarning yoshida yozgan narsalarimning aksariyati ularnikidan ancha past ekan. Ularga behad havasim keldi. Payti kelib, jahonni qoyil qoldiradiganlar shularning orasidan yetishib chiqsa, ajabmas". Ta'lim-tarbiya borasida amalga oshirilayotgan islohotlarni, ular berayotgan ilk natijalarni hayotimizning boshqa jabhalarida kechayotgan yangilanishlar bilan bog'liq holda tasavvur etar ekanmiz, o'zining mustaqil fikriga ega, vatanparvar hamda bugungi shiddatli zamon talablariga munosib javob bera oladigan yoshlar qudratli to'lqin misol jamiyat hayotiga kirib kelayotganligiga amin bo'lamiz. Bugungi kunda Prezidentimiz rahnamoligida mustaqillikni mustahkamlash, mamlakatni rivojlantirish hamda jamiyatni sog'lomlashtirish borasida olib borilayotgan keng ko'lamlı ishlar qatorida ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh etish natijasida erishayotgan yutuqlarimiz haqli ravishda xalqaro doirada e'trof etilmoqda. Hayotga keng joriy

etilayotgan ta'limning milliy modeli yaxlit sistemaga egaligi va uzviyligi, shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan, ishlab chiqarish kabi o'ta muhim komponentlarni qamragan holda ularni iqtisodiy-ijtimoiy modernizatsiyalash jarayonlariga muvofiq ravishda sifatli kadrlar tayyorlash imkoniniberayotganligi bilan ham o'ziga xosdir. Biz quyida mustaqillik yillarida ta'lim-tarbiya sohasini rivojlantirish borasida amalga oshirilgan ishlarni keltirib o'tish asnosida mazkur yangilanishlar, ulkan bunyodkorliklarning jamiyatda yangicha ijtimoiy ongning shakllanishiga, ijtimoiy-siyosiy iqlimning yaxshilanishiga, mamlakat taraqqiyotiga nechog'li ta'sir etayotganini aniq misollar, mavjud voqelik hamda erishilayotgan natijalar misolida aks ettirishni maqsad qilganmiz.

Yangilanish:

Yurtimizda ta'lim-tarbiya sohasini rivojlantirish borasida belgilangan ulug'vor maqsadlarni ro'yobga chiqarish izchillik bilan amalga oshirilmoqda. 2004-2009 yillarda Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi doirasida 351ta yangi maktab binosi qurildi, 2470 tasida kapital rekonstruksiyalash, 3608tasida kapital, 2072 tasida joriy ta'mirlash ishlari olib borildi. Ushbu maqsadlarga jami 1,4 trln. so'm mablag` sarflandi. Mazkur ta'lim muassasalarining 6887 tasi qishloq hududlarida, 288tasi esa o'lkamizning borish qiyin bo'lgan hududlarida joylashganini inobatga oladigan bo'lsak, naqadar mislsiz, keng qamrovda bunyodkorlik ishlari olib borilgani ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi.

Natijada: Yillar davomida o'z holiga tashlab qo'yilgan ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi, tubdan yangilandi, zamonaviy talablar asosida o'qitish jarayonini tashkil etish uchun munosib shart-sharoitlar yaratildi, shahar va qishloq maktablari o'rtasidagi bu boradagi keskin tafovutga barham berildi.

Ma'rifat maskani bo'lmish maktab - kelajak ostonasi, farzandlar ta'lim-tarbiyasi - hayot-mamot masalasi ekanini teran anglagan xalqimizda kelajakka ishonch uyg'ondi, farzandlarini o'z yurti istiqbolining haqiqiy egalari sifatida

voyaga yetkazishdagi mas'uliyati ortdi. Yoshlarda o`qib-o`rganishga rag`bat kuchaydi, o`qituvchilarning jamiyatdagi o`rni, el ichidagi obro`si oshdi. Ta'lim muassasalari har bir joyda tom ma'noda ma'naviyat maskanlari sifatida muqaddas dargohga aylandi.

Yangilanish: Mustaqillik yillarida ta'lim jarayonini yangicha talablar asosida tashkil etish, takomillashtirish bo`yicha olib borilgan jiddiy izlanishlar natijasida avvallari faqat aholining umumiy savodxonligini ta'minlash bilan cheklangan ta'lim mazmuni tubdan yangilandi. MDH davlatlari ichida birinchi bo`lib Davlat ta'lim standartlari ishlab chiqildi va joriy etildi. Amaliyot jarayonida ta'lim turlariaro uzviylikni, uzluksizlikni ta'minlash maqsadida o`quvfanlari bo`yicha DTS hamda o`quv dasturlari takomillashtirilmoqda, muvofiqlashtirilmoqda. Yurtboshimizning "Darsliklarda millat fikrining, millat tafakkuri va millat mafkurasining eng ilg`or namunalari aks etishi kerak" degan g`oyasidan kelib chiqib darsliklarning yangi avlodi yaratildi. Samarali tashkil etilgan tizim asosida ularni muntazam ravishda, ya'ni 2 - 3-sinflar uchun har 2 yilda, 5 - 9-sinlar uchun har 4 yilda takomillashtirish, zarur nusxada yangitdan chop etib borish yo`lga qo`yildi. Bu o`rinda O`zbekiston Respublikasi Prezident I.Karimovning: "...Ta'limning yangi modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi. O`zining qadr-qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo`lgan insonlarni tarbiyalash imkoniga ega bo`lamiz. Ana shundan keyin ongli turmush kechirish jamiyat hayotining bosh mezoniga aylanadi. Shunda odam olomon bo`lib, har lahzada serkaga ehtiyoj sezib emas, aksincha – o`z aqli, o`z tafakkuri, o`z mehnati, o`z mas'uliyati bilan ongli tarzda, ozod va hur fikrliinson bo`lib yashaydi"<sup>3</sup>, - degan fikrlari g`oyat o`rinlidir.

Ta'lim muassasalarida 9875ta fizika, 9487ta kimyo laboratoriya xonalari, 9390ta biologiya xonalari tashkil etilib, zamonaviy o`quv-laboratoriya jihozlari bilan to`ldirildi. Shuningdek, barcha ta'lim muassasalaridagi "Ma'naviyat va ma'rifat", kasbga yo`naltirish, chizmachilik, tasviriy san'at va rassomlik, chet tili

<sup>3</sup> Qurbonov Sh., va boshqalar. Barkamol avlod orzusi ("Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni amalga oshirish borasidagi publitsistik mulohazalar). –T.: Sharq, 1998. 135-bet.

xonalari hamda faollar zali, tibbiyot xonasi, ma'muriy-metodik xona va barcha yotoqxonalar zamonaviy mebel va maxsus jihozlar bilan bekamu ko'st ta'minlandi.

Natijada: Maktab o'quvchilarining darsliklar bilan ta'minlanishi darajasi o'tgan yigirma yil davomida 55,4 foizdan 99,4 foizga ortdi. Davlat tomonidan kam ta'minlangan oila farzandlari uchun darsliklar bepul ajratilgani, avvalo, har bir shaxsning bilim olishga bo'lgan Konstitusiyaviy huquqini kafolatlash, ijtimoiy muhofaza tamoyili ustuvorligining amaliy ifodasi sifatida namoyon bo'ldi. Endigina maktab ostonasini hatlagan 1-sinf o'quvchilariga 12 xil o'quv qurollari bilan birga barcha darsliklarning Prezident sovg'asi sifatida taqdim etilishi ularda bilim olishga rag'bat uyg'otish barobarida inson manfaatlari yuksak qadrlangan mamlakat farzandlari ekanini anglab yetishiga xizmat qilmoqda. Mazmunan yangilangan, o'quvchining mustaqil ravishda o'qib o'rganishini nazarda tutgan darsliklar, ilg'or o'quv laboratoriya jihozlari orqali yoshlarimiz zamonaviy bilim, ko'nikma, malakalarni o'zlashtirish, o'z iqtidor va qobiliyatlarini yuzaga chiqarish, rivojlangan demokratik mamlakatlardagi tengdoshlari bilan teppa-teng raqobatga kirishish imkoniyatiga ega bo'ldi. 1995-2011 yillar davomida O'zbekiston o'quvchilari ximiya, biologiya, fizika, matematika, informatika va xorijiy til fanlaridan xalqaro fan olimpiadalarida jami 244ta, shundan - 20ta oltin, 49ta kumush, 175ta bronza medalini qo'lga kiritdi. Yangilanish:

Ta'lim tizimiga ilg'or texnologiyalar joriy etildi. 9400ta maktab so'nggi rusumdagi kompyuterlar bilan ta'minlandi. Mazkur ta'lim muassasalarining barchasi "ZiyoNET" axborot tarmog'i orqali xalqaro Internet tizimiga ulandi. Xalq ta'limi vazirligi huzurida faoliyati tashkil etilgan "Multimedia umumta'lim dasturlarini rivojlantirish" markazida 20ta elektron darslik, 40ta virtual laboratoriya ishlari va 113ta turli multimediali resurslar yaratilib, o'quv-tarbiya jarayoniga muvaffaqiyatli joriy etildi. Umumta'lim maktablarida shu yillar ichida 1074ta Axborot-resurs markazi tashkil etildi va ular zarur texnik jihozlar bilan

to'liq ta'minlandi. Mazkur markazlarning kitob fondi 7960840 nusxani tashkil etadi. Bunga qo'shimcha Axborot-resurs markazlarida 95645 dona elektron nashrlar mavjud.

Natijada: Maktablarni zamonaviy kompyuter texnologiyalari bilan ta'minlash darajasi 2004 yildagi 14 foizdan hozirga kelib 96 foizga ko'tarildi. Mamlakatimizda ta'lim jarayonining dunyo ta'limiga integrasiyalashuvi, fan-texnika sohasida bo'layotgan eng so'nggi yangiliklarni tezkor ravishda ta'lim mazmuniga singdirib borish imkoniyati yuzaga keldi. O'qituvchi hamda o'quvchilarda yangilikka intilish, o'z ustida ishlash, faoliyatiga tanqidiy nazar bilan qarab, muntazam ravishda rivojlanib borish ko'nikmasi hosil bo'ldi. Barcha o'quv fanlari bo'yicha elektron o'quv vositalaridan, axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatining kengayishi o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish samaradorligini sezilarli darajada oshirdi. Yangilanish: Yurtboshimiz tashabbusi bilan sportni ta'lim-tarbiya bilan mutanosib rivojlantirish, o'sib kelayotgan yosh avlodning jismoniy va ma'naviy salomatligini shakllantirish, ular ongiga sog'lom turmush tarziga intilish va sportga mehr-muhabbatni singdirish maqsadida O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi tashkil etildi. Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi tomonidan hududlarning iqlim sharoiti, aholisi soni hisobga olingan holda, maxsus loyiha asosida 5 turda, jami 1204ta sport inshooti hamda Maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armasi tomonidan 3690ta mavjud maktab sport zallari kapital ta'mirlanib va yangidan qurilib foydalanishga topshirildi. Ushbu maskanlar 120 turdagi jahon andozalariga mos keladigan sport uskuna va anjomlari bilan jihozlandi. Mamlakatimizda yoshlarni ommaviy ravishda jismoniy tarbiya va sport harakatiga jalb qilishga qaratilgan umumta'lim maktablari o'quvchilarining "Umid nihollari", o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalari o'quvchilarining "Barkamol avlod" va oliy o'quv yurtlari talabalarining Universiada sport musobaqalarini o'z ichiga olgan uch bo'g'inli yagona tizim joriy etildi.

Natijada: Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, yoshlik chog`idan sport bilan do`st tutinayotgan yoshlarimizda o`z ustida ishlash, xarakterini toblash, musobaqalarda qatnashish orqali qat'iyatlilik va mardlik xususiyatlari, mustahkam iroda shakllanmoqda.

Mamlakatimizda 6 yoshdan 15 yoshgacha bo`lgan o`quvchilar o`rtasida sport bilan shug`ullanuvchilar 2008 yildagi 29,2 foizdan 2011 yilda 34,9 foizgacha, jumladan qiz bolalar o`rtasida 24,1 foizdan 31,4 foizga oshdi. Aholi o`rtasida qiz bolalar sporti, jismoniy tarbiyasiga munosabat tubdan o`zgardi.

Yurtimizda 2005 - 2011 yillarda mutlaq sog`lom bolalar 52,7 foizdan 62,9 foizgacha o`sdi, surunkali kasallikka chalingan bolalar soni keskin kamaydi. Mustaqillik yillarida o`quvchi yoshlarimiz xalqaro musabaqalarda 4025ta, shundan 1279tasi oltin, 1164tasi kumush va 1589 tasi bronza medallarini qo`lga kiritdi.

Yangilanish: Yurtboshimizning "Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo`lmaydi - bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi" degan g`oyasi asosida yosh avlodni chuqur bilimli, zamonaviy dunyoqarash egasi qilib o`stirish barobarida ular qalbida ezgu tuyg`ularni parvarishlash, ularni Vatanga muhabbat, xalqqa sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash vazifasi ta'lim muassasalarida ustuvor ahamiyat kasb etdi. Ta'lim-tarbiyadan ko`zlangan pirovard maqsad, mazmun-mohiyat tubdan o`zgardi.

Natijada: Bugun insoniyat oldida, qudratli moddiy-moliyaviy imkoniyatlar, yetarli sharoitlarga ega ayrim rivojlangan davlatlarda jiddiy muammo sifatida namoyon bo`layotgan yoshlar o`rtasidagi jinoyatchilik, bag`ritoshlik, e'tiqodsizlik, axloqsizlik singari ijtimoiy va ma'naviy yemirilishlar oldi olindi.

Yoshlarimiz xalqimizning o`lmas ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlaridan bahramand bo`lish barobarida, dunyoning eng ilg`or fikri bilan tanishish, uni tahlil

etish va o'z qarashini emin-erkin shakllantirish imkoniyatiga erishdi. Tafakkuri ozod yoshlarimiz intellektual jihatdan yuksak rivojlangan, o'z grajdanlik pozitsiyasiga, har qandayin buzg'unchi g'oyalarga qarshi mustahkam immunitetga ega barkamol avlod bo'lib, katta hayot sahnasiga qadam qo'ymoqda. Yangilanish: Milliy dasturni amalga oshirishning dastlabki yillarida uzluksiz ta'lim tizimining mutlaqo yangi, mustaqil turi - o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini shakllantirishga urg'u berildi. Kasb-hunar kollejlari va akademik liseylarning tubdan yangi moddiy-texnik bazasi yaratildi. Ushbu ta'lim turini me'yoriy-huquqiy, uslubiy jihatlardan to'liq ta'minlash, yetuk pedagog kadrlar, tarbiyachilar safini shakllantirish, ta'lim-tarbiya jarayonining mazmuni va uning tashkil etilishi, bunda ota-onalar roli, vasiylik kengashlarining faoliyati yo'lga qo'yildi. Hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan ish o'rinlari yaratish va aholi bandligini ta'minlash dasturida kasb-hunar kollejlari va akademik lisey bitiruvchilarini ish bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. "Korxonalar - kollej" hamkorlik aloqalari, bo'lajak har bir bitiruvchining ish joyini oldindan belgilash, ularning o'quv amaliyotini bevosita ushbu korxonada o'tashini tashkil etish ishlari yo'lga qo'yilayotir.

Bugungi kunda 127,4 ming ishlab chiqarish korxonalarida 15,3 mingta o'quv-amaliy mashg'ulotlar olib boriladigan auditoriyalar tashkil etilgan. Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanib borishi, mehnat bozorida real ehtiyojlar hisobga olingan holda mavjud o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida mutaxassisliklar yo'nalishlarini muvofiqlashtirish ishlari olib borilmoqda.

Natijada: Mamlakatimizda 141ta akademik lisey hamda 1396ta kasb-hunar kollejlari faoliyati yo'lga qo'yildi. Ularda 1,7 million nafar o'g'il-qizlar bugungi kunda ehtiyoj katta bo'lgan zamonaviy kasb-hunarlar sirlarini o'rganmoqda. Akademik liseylarda o'quvchilar keyinchalik tegishli oliy o'quv yurtlarida ta'limni davom ettirish maqsadida o'zlari tanlagan yo'nalish bo'yicha chuqur bilim olish, mehnat faoliyati davomida zarur bo'ladigan maxsus kasbiy ko'nikmalarni

o`zlashtirish imkoniyatiga ega bo`lishdi. Kasb-hunar kollejlarda o`quvchilar uchun o`zi tanlagan kasb-hunar bo`yicha kasbiy layoqati, qobiliyati va ko`nikmalarini rivojlantirish hamda bir necha turdosh kasb-hunarlarni egallash imkoniyati yuzaga keldi. Qaerda, nima ish bilan shug`ullanishini oldindan bilgan, ishchi-xodimlar bilan yaqindan hamkorlikda bo`lgan kollej bitiruvchisining kelgusida mehnat faoliyatiga ko`nikishi osonlashmoqda. Mehnat bozorida o`zgarishlar hamda iqtisodiyotning real sektoridagi mavjud ehtiyojdan kelib chiqqan holda 2011 yilda ayrim hududlardagi 343ta kollejda 34ta yo`nalish bo`yicha mutaxassislar tayyorlash to`xtatilib, 576ta kollejda 133ta yangi kasb yo`nalishlari tashkil etildi, oltmishga yaqin shu turdagi ta'lim muassasalari qayta ixtisoslashtirildi.

Yangilanish: Bolalar va o`smirlarning individual ehtiyojlarini qondirish, ularning bo`sh vaqti va dam olishini tashkil etish uchun madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo`nalishlarda maktabdan tashqari ta'lim muassasalari tashkil etildi.

Toshkent va Nukus shahri hamda barcha viloyat hamda tumanlar markazlarida 211 ta "Barkamol avlod" bolalar markazlari tashkil etilmoqda. Ularda badiiy ijodiyot, bolalar o`lkashunoslik va ekologiya, texnik ijodiyot yo`nalishlarida milliy hamda zamonaviy kasb-hunar, ilm hamda san'at sirlari o`rgatilmoqda.

Natijada: Maktabdan tashqari ta'lim - uzluksiz ta'lim tizimining uzviy bir qismiga aylanib, yosh avlodiqtdorini erta aniqlash va to`g`ri yo`naltirish, ularning bo`sh vaqtlarini maqsadli va mazmunli tashkil etish orqali ularni "ommaviy madaniyat" ta'siri va yot g`oyalardan himoya qilishning muhim vositasiga aylandi. Mazkur ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi mustahkamlanib, ularning faoliyati yangi sifat bosqichiga ko`tarildi. To`garak mashg`ulotlariga zamonaviy texnologiyalar joriy etila boshlangani evaziga farzandlarimizning xalqaro ko`rik-tanlov va festivallarda erishayotgan muvaffaqiyatlari soni yanada ko`payib bormoqda.

Yangilanish: Yoshlar iste'dodini ro'yobga chiqarish va kamol toptirish, madaniy saviyasini yuksaltirish, ular qalbiga san'at orqali milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarni singdirish maqsadida bolalar musiqa va san'at maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ular faoliyatini tubdan yaxshilashga oid 2009-2014 yillarga mo'ljallangan Davlat dasturi qabul qilindi. Davlat dasturiga ko'ra, maxsus ishlab chiqilgan zamonaviy loyihalar asosida mamlakatimizning barcha hududlarida 278 ta bolalar musiqa va san'at maktabi va 2 ta respublika ixtisoslashtirilgan musiqa akademik liseyida qurilish-tiklash va moddiy-texnik bazasini xalqaro standartlarga mos ravishda tashkil etish ishlari davom ettirilmoqda.

Natijada: Shu asosda 2009 - 2011 yillarning o'zida 119 ta yangi bolalar musiqa va san'at ta'lim muassasasi qurilib foydalanishga topshirildi, ular zamonaviy va milliy musiqa cholg'ulari, mebel va uskunalar bilan to'liq ta'minlandi.

Hozirgi yoshlar musiqa va san'at bobida ajdodlari qoldirgan boy milliy madaniy merosni chuqur o'rganish, an'analarni davom ettirish va boyitish imkoniyatiga ega bo'lishdi.

Yoshlarimiz milliy va jahon musiqa va tasviriy san'atining yuksak namunalaridan keng bahramand bo'lish barobarida o'z oldilariga bu borada ham katta yutuqlarga erishishdek vazifani qo'ya boshladilar. Mustaqillikkacha yurtimizdan har yili 3-4 nafargina o'quvchimiz xalqaro tanlovga yo'llanma olgan bo'lsa, 1992-2011 yillar oralig'ida 306 nafar iste'dodli yoshlarimiz o'nlab davlatlarda san'at va musiqa yo'nalishida o'tkazilgan turli xil nufuzli xalqaro tanlovlarda ishtirok etib, yuqori natijalarga erishdi.

Yangilanish: Uzluksiz ta'lim tizimining uzviy davomi sifatida oliy ta'limga yondashuv tubdan o'zgardi. Ularda fan va texnika, iqtisodiyot, ishlab chiqarish hamda boshqa sohalardagi real ehtiyojdan, hayot talablaridan kelib chiqqan holda yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash yo'lga qo'yildi.

Abituriyentlar va talabalar bilim darajasini test va reyting asosida baholashning ilg'or usullari amaliyotga joriy etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida" qaroriga muvofiq 2011-2016 yillarda oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini modernizatsiyalash va mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash Dasturi qabul qilindi. Unga ko'ra oliy o'quv yurtlarini zamonaviy o'quv va ilmiy-laboratoriya jihozlari, kompyuter, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ta'minlash, kadrlar tayyorlash yo'nalishlari va mutaxassisliklarini maqbullashtirish, ta'lim standartlarini takomillashtirish izchillik bilan davom ettirilmoqda. Dasturda oliy ta'lim muassasalarining o'quv binolari, sport inshootlari, talabalar turar joylarini qurish, rekonstruksiyalash va ta'mirlash ishlarini bosqichma-bosqich amalga oshirish ham ko'zda tutilgan.

Natijada: Ishlab chiqarishdagi tarkibiy o'zgarishlar, modernizatsiya jarayonlari umuman hisobga olinmagan, xalqaro tajribalardan mutlaqo uzilib qolgan oliy maktab tizimiga barham berildi.

Oliy ta'lim muassasalariga qabul jarayonining test sinovlari asosida tashkil etilishi jamiyatda ijtimoiy adolatning qaror topishiga, eng iqtidorli, qobiliyatli va bilimdon yoshlarni haqqoniy saralashga xizmat qilmoqda.

Mutaxassisliklar yo'nalishi bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, ta'lim muddati kamida to'rt yil davom etadigan tayanch oliy ta'lim hisoblangan bakalavriat hamda aniq mutaxassislik bo'yicha fundamental bilim beradigan, bakalavriat negizida ta'lim muddati kamida ikki yil davom etadigan magistraturani o'z ichiga olgan ikki bochqichli oliy ta'lim tizimi tashkil etildi. Oliy ta'lim sifatini ko'tarish, hududlardagi yuqori malakali mutaxassislarga bo'lgan kuchli ehtiyojni qondirish hamda joylarda qobiliyatli yigit-qizlarga o'z iqtidorini namoyon etish, har tomonlama qulay sharoitlarda ilmiy-kasbiy salohiyatini yuzaga chiqarishi uchun qulay imkoniyatlar yaratish maqsadida

mustaqillik yillarida mavjud institutlar bazasida o`n ikkita yangi universitet tashkil etildi.

Oliy ta'lim yo`nalishlari va mutaxassisliklari tasniflagichi yangilandi. 2011-2012 o`quv yilidan mazmuni jihatidan turdosh mutaxassisliklarni birlashtirish hamda iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada ehtiyoj bo`lmagan mutaxassisliklarni tugatish hamda mavjud turdagi mutaxassisliklarni muvofiqlashtirish hisobiga bakalavriatda ta'lim yo`nalishlari 228 tadan 165 taga, magistratura mutaxassisliklari 1200 tadan 500 tagacha qisqartirildi. Oliy ta'lim yo`nalishlari va mutaxassisliklari tasniflagichiga kiritilgan o`zgarishlardan kelib chiqqan holda tegishli davlat ta'lim standartlari, o`quv reja va dasturlari hozirgi zamon talablariga mos holda bosqichma-bosqich takomillashtirilmoqda.

Ilm-fan va texnologiyalar sohasidagi eng so`nggi yutuqlar hisobga olingan holda oliy ta'lim muassasalari uchun 400 ta yangi darslik (180 tasi muhandislik mutaxassisliklari bo`yicha) hamda 800 ta o`quv-metodik qo`llanmalar (360 tasi muhandislik mutaxassisliklari bo`yicha) ishlab chiqish jadal olib borilmoqda. Multimedia vositalari va masofaviy ta'lim shakllari asosida 6000 ta zamonaviy o`quv-metodik majmualar yaratildi, shuningdek, ilg`or pedagogik texnologiyalarni qo`llagan holda informatika va axborot texnologiyalarini o`qitish metodikasi yanada rivojlantirilmoqda.

Mamlakatimizdagi oliy ta'lim muassasalarining o`zaro tajriba almashuvi, doimiy o`quv-ilmiy hamkorligini yo`lga qo`yish maqsadida ularning barchasini birlashtiruvchi "Elektron ta'lim" milliy tarmog`i yaratish bo`yicha birinchi bosqich vazifalari tugallandi. Barcha oliy ta'lim muassasalari va ularning tegishli filiallari mazkur korporativ tarmoqqa optik tolali aloqa liniyalari orqali ulanib, masofaviy ta'limni tashkil etish uchun zarur bo`lgan vedeokonferensiya uskunalari bilan jihozlandi. Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish jarayonida professor-o`qituvchilar, talabalarning muntazam ishtirok etib, yangi bilimlar yaratishi va o`zlashtirishi, ular asosida o`quv-tarbiya ishlarini sifat

jihatdan yuksaltirishni ta'minlash va bu borada ishlab chiqarish sohasi, Fanlar akademiyasi va boshqa ilmiy muassasalar bilan hamkorlikni kuchaytirish maqsadida 15 ta zamonaviy ilmiy-tadqiqot laboratoriyalari tashkil etildi.

Oliy ta'limning jahon ta'lim tizimiga integrasiyalashuvi jarayonini jadallashtirish, ilg`or ta'lim texnologiyalarini mamlakatimiz o`quv yurtlariga joriy etish maqsadida respublikamizda dunyoning uchta yetakchi oliy o`quv yurtlarining filiallari, ikkita universiteti hamda bitta instituti faoliyati tashkil etildi. Biz yuqorida qisqa davr - yigirma yil davomida ta'lim-tarbiya, kadrlar tayyorlash tizimida olib borilgan keng ko`lamli ishlar va ularning ilk natijalari xususida qisman so`z yuritdik. Shu o`rinda noyob sanalgan ta'limning milliy modeli o`z mohiyatiga ko`ra ta'lim tizimi va kadrlar tayyorlash sohasida yaqin kelajakda, istiqbolda bajariladigan vazifalarnigina emas, balki mamlakat taraqqiyotiga molik muhim masalalarni ham qamrab olganligini ta'kidlash lozim. Mamlakatimizda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ma'naviy sohalarni modernizatsiyalash jarayoni davom etar ekan, tabiiy holda ta'lim tizimi hamda kadrlar tayyorlashga zamon o`zining yangi talablarini qo`yadi. Shu ma'noda ta'limning milliy modeli tub mohiyatini yoritishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlari mazmunini kengaytirish, takomillashtirish hamda tizimda amalga oshirilayotgan jarayonlarni muntazam ravishda tahlil qilib borish, xulosalar chiqarish dolzarb hisoblanadi. Zero, ushbu yo`nalishda uzviy ravishda olib boriladigan ishlar milliy modelning istiqboldagi ahamiyatini, yurt taqdiri bilan bog`liq hayotiy zarur masalalarning oqilona yechimini topishdagi o`rnini yanada mustahkamlaydi.

## I.2. Ta'lim-tarbiyaning zamonaviy tashkiliy shakllari

Xalq maorifini boshqarish davlatimiz siyosatining bevosita ifodasidir. Umumiy o'rta va kasb -hunar ta'limining rivojlanishi ularning maqsad hamda vazifalarini tobora yaqinlashtirib, birlashtirmoqda.

Boshqaruv organlari barkamol avlodni o'qitish va tarbiyalash taraqqiyotiyagona davlat siyosatini amalga oshirishlari, etilgan masalalarni o'z vaqtida va ijodiy hal etishlari, barcha o'quv yurtlarining ish saviyasi hozirgi zamon talablariga muvofiq oshirilishini ta'minlashlari kerak.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishdan bosh maqsad va pirovard natija har jihatdan barkamol avlodni tarbiyalash, XXI asrning erkin fikrli, o'z vatani va xalqini manfaatlariga sadoqatli yorqin shaxslarni voyaga etkazishda namoyon bo'ladi. Bu maqsadga erishish umumiy demokratik yangilanishlar jarayoni, jamiyatni erkinlashtirish, mamlakatda yangi ijtimoiy-siyosiy muhitni shakllantirish bilan bog'liqdir. Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish, hayotga tadbiiq qilish, hech bir mubolag'asiz, strategik maqsadlarimiz farovon qudratli demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati barpo etishimizning asosi bo'lmog'i lozim.

Bu barcha davlat va jamoat tashkilotlari, tabiiyki, eng avvalo, uzluksiz ta'lim tizimi muassasalari faoliyati mazmunini tubdan qaytadan ko'rib chiqishni taqozo etadigan murakkab jarayondir. Ijtimoiy amaliyot, jamoatchilik tarbiyasi, ta'lim va tarbiyaning aniq maqsadga qaratilganligi - erkin shaxsni shakllantirishning asosini tashkil etadi.

Erkinlashtirish, jamiyatni ma'naviy yangilash, birinchi navbatda, yosh avlod an'analari insonparvarlik va demokratik qadriyatlarni singdirish orqali ta'minlanadi.

Jamiyatni ma'naviy yangilash jarayonida, shunga asoslangan holda Vatan madaniyati va milliy san'atini rivojlantirish, ularning yutug'ini xorijiy mamlakatlarida targ'ib va tashviiq etish, yoyish, milliy va xalqaro tanlovlar,

ko'riklar o'tkazish kabi chora-tadbirlarni faollik bilan amalga oshirish ayniqsa, yoshlar badiiy ijodiyotini yanada rivojlantirish alohida ahamiyatga egadir. O'zbek xalqi va uning davlatchilik tarixi, O'zbekiston xalqlarining badiiy, falsafiy va pedagogik tafakkuri shakllanishi va rivojlanishi tarixi, etnografiya, etnogenez, adabiyotshunoslik, ijtimoiy-gumanitar fanlarning barcha yo'nalishlarini yangi saviyaga ko'tarish talab qilinadi. Mazkur muammolar doirasida ilmiy izlanishlar olib borishning konseptual asoslari O'zbekiston Prezidentining "Tarixiy xotirasiz - kelajak yo'q" risolasida chuqur tahlil etilib, boshlab berilgan.

Ma'naviy yangilanish jarayoni milliy bayramlar, urf-odatlar, o'yinlar shaklida mavjud bo'lgan taraqqiyparvar milliy qadriyat va an'analarni qayta tiklash, ularni rivojlantirish va zamonaviy hayotga joriy etish bilan hamuzviy bog'liqdir.

*Ta'lim tarbiya tizimiga rahbarlik qilish prinsiplari.*

Ta'lim oldiga qo'yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish ta'lim tizimini boshqarish va unga rahbarlik qilish faoliyatining saviyasiga bog'liq. Kelajagi buyuk jamiyatning rivojlanish talablaridan kelib chiqib, maorifning o'rni va roliga yangi avlodni tarbiyalash nuqtai nazaridan qarab, Oliy Majlis materiallarida, Prezidentimiz ma'ruzalarida, maxsus qarorlarida rahbarlikning yuqori ilmiy darajada amalga oshirish zarurligiga alohida e'tibor berib kelmoqda.

Ta'lim tizimiga ilmiy rahbarlik asoslarini ishlab chiqish pedagogika uchun asosiy yo'nalishdir. Barkamol avlodni o'qitish va tarbiyalash tajribalarini o'rganish, umumlashtirish, bu jarayonning qonuniyatlarini ochib berish, pedagogika nazariyasining asosiy masalalarini ta'lim amaliyotiga va fan yutuqlarini nazarda tutgan holda I.A. Karimov asarlari asosida ijodiy hal qilish pedagogikaning burchidir.

I.A. Karimov o'z asarlarida kelajagi buyuk O'zbekiston Respublikasining organlarini tashkil etish, boshqarish va ularning rahbarlik faoliyatiga doir muhim prinsiplarini har taraflama mufassal ishlab chiqdi.

*Ilmiylik va pedagogika fani amaliyot bilan bog'lanish prinsipi.*

Bu princip xalq ta'limi organlari va maktabning hamma ishini O'zbekiston Respublikasi davlatining ko'rsatmasi, fan va texnika yutuqlari hamda ijtimoiy taraqqiyotning ob'ektiv qonuniyatlari asosida amalga oshirishni talab etadi. Chunki idora qilish uchun ishni bilish kerak. Hamma narsadan xabardor bo'lmasdan turib, to'la-to'kis bilimga ega bo'lmasdan turib, idora qilish ilmini bilmasdan turib, boshqarish mumkin emas. Xalq ta'limi ishlarini, maktab ishini, kasb-hunar kollejlari ishini va unga rahbarlik qilishda ko'zlangan maqsadlarga erishish uchun milliy mafkura, milliy g'oya, pedagogika, pedagogika tarixi, psixologiya, xususiy metodika, mantiq, etika va estetika kabi fanlar erishgan yutuqlarni muntazam o'rganib borish, tahlil qilish hamda bu muvaffaqiyatlarini keng qo'llanishi zarur.

Boshqaruv muassasalari barkamol avlodni o'qitish va tarbiyalash taraqqiyotiyagona davlat siyosatini muttasil etilgan masalalarini o'z vaqtida va ijodiy hal etishlari, barcha o'quv yurtlarining ish saviyasi hozirgi zamon talablariga muvofiq oshirish ishini ta'minlash kerak.

*Demokratik markazlashgan princip.*

Ta'lim tizimini boshqarishda markazlashgan rahbarlikni keng demokratiya bilan mustaqillik va tashabbuskorlikni rivojlantirish bilan birga qo'shib olib borish, o'ziga xos xususiyatlarni va shart-sharoitlarni hisobga olish imkonini beradi.

Yuqoridan turib, bir xil andoza bichib berish demokratiya va markazlashgan rahbarlikka butunlay yot narsadir. Barcha tadbirlarda, mahalliy xususiyatlarda ishga qanday munosabatda bo'lish usullarida, nazoratni amalga oshirish usullarida, har xil yo'llarini qo'llanish asosiy, muhim bo'lgan birliklarni buzmaydi, balki bu birlikni ta'minlaydi.

Ilmiy rejalashtirish ta'limning insonparvarlik (tamoyillari), ta'limda yoshlarni shaxsiy o'quv qobiliyatini ro'yobga chiqarish va ularni rivojlantirish va boshqa prinsiplari mavjud.

Ishlab chiqarish va ta'lim tizimi.

O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturida o'quv ishlab chiqarish majmuasining (markazlarini) tashkil etish va

ularni rivojlantirish, zamonaviy uskunalar, apparatlar va asboblar bilan jihozlash rag'batlantiriladi, deyiladi. Kadrlar tayyorlash va birgalikda ilmiy-texnologik echimlar yaratishda korxonalarining ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalaniladi. Ishlab chiqarishda kadrlar tayyorlash qo'llab quvvatlanadi.

*Ta'lim tizimini hayot bilan va mustaqil O'zbekiston davlatining siyosati bilan bog'langanlik prinsipi.*

Ta'lim tizimi hayot bilan, davlatimiz siyosati bilan bog'lash prinsipi O'zbekiston maktablari, kasb-hunar kollejlari oldida turgan barcha nazariy va amaliy vazifalarni hal etishda asosiy prinsip bo'libkeldi va shunday bo'libqoladi.

Ta'lim tizimini boshqarishga siyosiy yondoshish ta'lim-tarbiya ishlaridagi hodisa, fakt va jarayonlarga mustaqil O'zbekiston Respublikasi manfaatlari nuqtai nazaridan turib munosabatda bo'lish demakdir.

Hozirgi bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida O'zbekiston xalqining irodasi va manfaatlarini ifodalab, kelajagi buyuk davlat qurishga va dadil qadamlar bilan bu vazifani amalga oshirishga qodir bo'lgan barkamol avlodga ta'lim-tarbiya berishni ta'limning asosiy vazifasi deb hisoblaydi. Yoshlarni milliy mafkura ruhida tarbiyalash, milliy ongni shakllantirish, Prezidentimizning hayoti va faoliyati timsolida, tajribasi negizida tarbiyalash zarur.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasida Xalq ta'limini keng yoyilishi, miqdor va sifati jihatidan jadal o'sishi, turli xildagi ta'lim tizimi va ta'lim muassasalaridan tashqari o'quv-tarbiya maskanlarining ishlab turishi, ta'lim va tarbiya jarayonini boshqarishning juda zarurligini taqozo etadi. Social boshqarish masalalari ilmiy bilimning maxsus sohasi qilib ajratiladi. Pedagogik jarayonlarni, hodisalarni va ob'ektlarni boshqarishda pedagogika qonuniyatlarini hisobga olish zarur. Bu holda pedagogik boshqarish tushunchasi qo'llaniladi.

Barcha tipdagi o'quv yurtlari, maktabdan tashqari muassasalar, xalq ta'limi bo'limlari va boshqalar asosiy boshqarish ob'ektlariga kiradi. Ta'lim-tarbiyani tashkil qilish va boshqarishga doir ishlarning hammasi pirovard natijada yagona asosiy maqsadga erishishga, ma'lum darajada umumiy ma'lumot darajasi va kasbiy tayyorgarligiga ega bo'lgan har tomonlama rivojlangan va imon-

e'tiqodli qilib tarbiyalangan kishini tarkib toptirishga qaratilgandir. Xalq ta'limi tizimi tarkibiga vazirliklar, tuman xalq ta'limi bo'limlari, maktablar, licey, kasb-hunar kollejlari kiradi.

Ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish, ta'lim tizimini boshqarish O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim tōg'risida"gi Qonunida ko'rsatib berilgan. Ular quyidagilardir:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta'lim sohasidagi vakolatlariga quyidagilar kiradi:

- ta'lim sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish:
- ta'lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlariga rahbarlik qilish:
- ta'limni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish:
- ta'lim muassasalarini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartibini

belgilash:

- ta'lim muassasalarini akkreditaciyadan, pedagog, ilmiy kadrlarni attestaciyadan o'tkazish tartibini belgilash:

- boshqa davlatlarning ta'lim muassasalariga O'zbekiston Respublikasining hududida ta'lim faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi ruxsatnomalar berish:

- qonun hujjatlariga muvofiq xorijiy davlatlarning ta'lim tōg'risidagi hujjatlarini tan olish va bu hujjatlarning ekvivalent ekanligini qayd etish tartibini belgilash:

- davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash:

- davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ma'lumot tōg'risidagi hujjatlarni tasdiqlash va ularni berish tartibini belgilash:

- davlat grantlari miqdorini va ta'lim muassasalariga qabul qilish tartibini belgilash:

- davlat oliy ta'lim rektorlarini tayinlash:

- ta'lim oluvchilarni akkreditaciya qilingan bir ta'lim muassasadan boshqasiga o'tkazish tartibini belgilash:

*Ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlarining huquqiy doirasi.*

Ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlarining huquq doirasiga quyidagilar kiradi:

- ta'lim taraqqiyotiyagona davlat siyosatini ro'yobga chiqarish:
- ta'lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish va uslubiy masalalarda rahbarlik qilish:
- davlat ta'lim standartlari, mutaxassislarining bilim saviyasi va kasb tayyorgarligiga bo'lgan talablar bajarilishini ta'minlash:
- davlat ta'lim muassasalarini moliyalash Respublika va mahalliy byudjetlar mablag'lari, shuningdek, byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi:

*Ta'limni rivojlantirish fondlari.*

Ta'limni rivojlantirish fondlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yuridik va jismoniy shaxslarning, shu jumladan chet ellik yuridik shaxslar va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy badallari hisobidan tashkil etilishi mumkin.

Xalq ta'limi vazirligi O'zbekiston Respublikasida maorifga bevosita rahbarlik qiladi. U barcha tipdagi maktablar, bog'chalarga rahbarlik qiladi. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi barcha universitetlarga, kasb-hunar kollejariga, liceylariga, bilim yurtlariga rahbarlik qiladi. Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv rejaları va dasturlar ishlab chiqadi va tasdiqlaydi. Xalq ta'limi vazirligi "Ta'lim haqida"gi qonunning bajarilishi, maktablarda o'quv-tarbiya jarayonining yo'lga qo'yilishi, uning moddiy bazasi, o'qituvchilarning malakasi va kattalar ta'limining tashkil etilishi uchun javob beradilar. Xalq ta'limi vazirligida turli xil o'quv-metodika bo'limlar tashkil etiladi. Ular pedagogika jamoatchiligini xalq ta'limi bo'limlari va maktablarga yordam berishga jalb etadilar.

Tuman, xalq ta'limi bo'limlari o'zlariga qarashli maktablari faoliyatini, mahalliy va milliy xususiyatlarini hisobga olgan holdanazorat qiladilar.

## **II-BOB. BARKAMOL AVLOD TARBIYASIDA O'QUV FANLARIDAN FOYDALANISHNING SHAKL VA USULLARI**

### **II.1.Barkamol avlod tarbiyasi istiqbollari.**

Bugun oilalarda kamolga yetayotgan, ta'lim muassasalarida bilim sirlarini puxta egallayotgan, qisqacha aytganda, mahalla ahli ko'z o'ngida ulg'ayayotgan yoshlarimiz yurtimizning ertangi kuni, taraqqiyoti uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga ola biladigan yetuk insonlar hisoblanadi. Shu bois yoshlar tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasida buni alohida e'tirof etdi.

Xususan, oila, mahalla va ta'lim muassasasi o'rtasidagi hamkorlikni hamda uning samarasini kuchaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqilib, hayotga tatbiq qilinayotgani yuqori baholandi. Zero, shuning hisobidan respublikamizdagi 4,5 milliondan ziyod o'quvchining 76 foizi maktab, "Barkamol avlod" bolalar markazlarida tashkil etilgan fan, musiqa va san'at to'garaklari, sport mashg'ulotlarida faol qatnashmoqda. Shu bilan birga, yil davomida mingga yaqin umumta'lim maktablari zamonaviy kompyuter xonalari, 1 ming 150 tadan ziyod kasb-hunar kollejidagi o'quv ustaxonalari amaliy mashg'ulotlar uchun zarur bo'lgan jihozlar hamda xom ashyo bilan ta'minlandi.

Yoshlarni tarbiyalashda Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 19 iyundagi "Barkamol avlodni tarbiyalashda oila instituti va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining ta'lim muassasalari bilan o'zaro hamkorligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori dasturilamal bo'lib xizmat qilayotganini aytib o'tish zarur. Nega deganda, bu qaror bilan Xalq ta'limi vazirligida "Oila mahalla ta'lim muassasasi" hamkorligi Jamoat kengashi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalarida jamoat kengashlari tuzilib, hozirgi paytda ular samarali faoliyat olib borishayapti. Jumladan, mazkur kengashlar sa'y-harakatlari

bilan oila, umumta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari va mahalla hamkorligi mustahkamlanib bormoqda.

Ayni chog'da ota-onalarning farzand tarbiyasidagi rolini yanada oshirish, ularning yosh avlodni tarbiyalash bo'yicha huquqiy, ma'naviy-axloqiy va fiziologik bilimlarini mustahkamlashga ko'maklashish bo'yicha ham chora-tadbirlar ko'rib, ta'lim-tarbiya sifatini o'rganish hamda uni yanada kuchaytirish doimiy e'tiborda turibdi. Shuningdek, ta'lim tizimidagi islohotlar haqida ota-onalar va jamoatchilikni xabardor qilish, o'quvchi-yoshlarning zararli yo'llarga kirib qolishiga sabab bo'layotgan omillarga qarshi profilaktik tadbirlarni kuchaytirish, ta'lim-tarbiya jarayoni va sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish hamda hududiy jamoat kengashlari faoliyatini muvofiqlashtirish ishlari yuqori darajada tashkil etilganini qayd etish joiz.

Qarordan kelib chiqqan holda, barkamol avlodni tarbiyalashda oila, mahalla, ta'lim muassasasi hamkorligini mustahkamlashda vazirlik va idoralar bilan o'zaro aloqalar muhim o'rin tutmoqda, deydi Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Jamoat kengashi mas'ul kotibi Jamoliddin Kamolov. "Oila mahalla ta'lim muassasasi" hamkorlik mexanizmini kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlar majmuida belgilangan vazifalarning ijrosi yuzasidan o'z tizimlarida monitoring yo'lga qo'yilgan hamda ular ijrosi muntazam muhokama qilib borilayotir. Keyingi yil uchun mo'ljallangan chora-tadbirlar rejasi ham ishlab chiqilayapti. Hamkorlik doirasida Respublika Ma'naviyat targ'ibot, Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy, "Oila" ilmiy-amaliy markazlari, Xalq ta'limi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklari, "Mahalla" xayriya jamoat fondi, Xotin-qizlar qo'mitasi mutaxassislari hamda jamoatchilik vakillaridan iborat targ'ibot guruhlari turli tadbirlar o'tkazishdi. Ularga 1 million 300 ming nafardan ziyod o'quvchi-yoshlar va aholi qamrab olindi. Respublika "Oila" ilmiy-amaliy markazi tomonidan ota-onaning farzand tarbiyasidagi o'rni, majburiyati hamda o'g'il-qizlar bilan o'zaro munosabatiga oid uslubiy qo'llanmalar chop etildi. "Oilada sog'lom turmush tarzini shakllantirishda ota-onaning roli", "Oilada ota-ona va farzandlarning burch

va mas'uliyati”, “Ota va ona bo‘lish mas'uliyati”, “Qiz bolaning qirq hunari bo‘lsa” kabi kitoblar shular jumlasidandir. Ayni chog‘da o‘rta maxsus kasb-hunar ta'limi o‘quvchilariga “Sharqona oila” o‘quv qo‘llanmasi yetkazib berildi. Madaniyat va sport ishlari vazirligi sa'y-harakati bilan turli tadbirlar o‘tkazilayotir. Joriy yil 11 iyul kuni o‘afur o‘ulom nomidagi madaniyat va istirohat bog‘ida uyushtirilgan “Sog‘lom oila mustahkam jamiyat barqaror mamlakat” shiori ostidagi oilaviy sport marafoni hamda bolalarning rasmlar tanlovini shunday tadbirlar sirasiga kiritish mumkin.

Oila, mahalla, ta'lim muassasasi hamkorligi doirasida notinch oilalardagi muhitni sog‘lomlashtirishga qaratilgan sa'y-harakatlar ham sira to‘xtagani yo‘q, deydi suhbatdoshimiz. Bu borada Xalq ta'limi vazirligi hamda Oliy va o‘rta maxsus ta'lim vazirligining o‘rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi, “Mahalla” xayriya jamoat fondi, Xotin-qizlar qo‘mitasi, “Kamolot” YOIH, “Sen yolg‘iz emassan” Respublika jamoatchilik bolalar jamg‘armasi, “Kelajak ovozi” yoshlar tashabbuslari markazi, Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi hamkorligidagi “Notinch oilalar farzandlariga ta'lim-tarbiya berish jarayonida ta'lim muassasalari hamda mahalla o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni tartibga solish to‘g‘risida nizomni tasdiqlash haqida”gi qo‘shma qarori qo‘l kelmoqda. Shu bilan birga, oilalarda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashda fuqarolar yig‘inlarining diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo‘yicha maslahatchilari mas'uliyatini va rolini yanada oshirish maqsadida “Mahalla” xayriya jamoat fondi respublika boshqaruvi va Xotin-qizlar qo‘mitasi hamkorligida qo‘shma qaror qabul qilindi. Mazkur hujjat ijrosi doirasida oilalar o‘rtasida tushuntirish tadbirlari olib borildi. Ichki ishlar idoralari tomonidan o‘quvchi-yoshlar orasida milliy urf-odatlarimizga zid salbiy holatlar, jinoyatchilik, huquqbuzarlik va boshqa noqonuniy harakatlar sodir etilishi oldini olish hamda profilaktik nazoratda turuvchi o‘quvchilarni tarbiyalashda ota-onalar, mahalla, huquq-tartibot idoralari hamda nodavlat tashkilotlari hamkorligi samarasi tufayli “Yozgi oromgoh”lar tashkil etildi. Profilaktik tadbirlar doirasida shu yilning noyabr oyidan boshlab Xalq ta'limi vazirligi, “Mahalla” xayriya jamoat fondi,

“Kamolot” YoIH markaziy kengashi hamkorligida “O‘quvchi” reydi yo‘lga qo‘yildi.

Vazirlar Mahkamasining “**Barkamol avlodni tarbiyalashda** oila instituti va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ta’lim muassasalari bilan o‘zaro hamkorligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ijrosi doirasida “Mahalla” xayriya jamoat fondi respublika boshqaruvi tomonidan muayyan ishlar amalga oshirildi, deydi Fondning respublika boshqaruvi raisi o‘rinbosari Gavhar Alimova. Chunonchi, “Mustahkam oila yili” Davlat dasturi ijrosini ta’minlash maqsadida tegishli tashkilotlar hamkorligida 7 mingdan ortiq mahallada “Ota-onalar universitetlari” ish boshladi. Ularga 40 mingdan ziyod davlat, jamoat tashkilotlari rahbarlari, obro‘-e’tiborli, hayot tajribasiga ega fidoyi insonlar, mahalla faollari jalb etildi. Yosh avlod tarbiyasida “Oila muqaddas tushuncha”, “Mahalla va oila ma’naviyatining mustahkamligi”, “Ota va ona oila tayanchi”, “Oilada sharqona sadoqat” mavzularida o‘tkazilayotgan uchrashuv va suhbatlar ham foydali bo‘lmoqda.

Mahallalarda yoshlarni hayotga har jihatdan tayyorlash, ularda hayotga mas’uliyat hissini kuchaytirish maqsadida ibratli oilalar ishtirokida besh mingdan ortiq uchrashuvlar o‘tkazildi. Xususan, Namangan shahridagi mahalla fuqarolar yig‘inlarida “Bir bolaga yetti qo‘shni ota-ona” mavzuida uchrashuvlar uyushtirilib, ularga 237 ming ota-ona va 68 ming yoshlar qamrab olindi. Toshkent viloyati tuman va shaharlarida tashkil etilgan “Mahalla xalq vijdoni”, “Biz bir oilamiz”, “Bir bolaga yetti qo‘shni ota-ona” mavzuidagi tadbirlarda esa 986 mingdan ziyod kishi qatnashdi, shundan 513 mingi yoshlar ekani e’tiborlidir. Xotin-qizlar qo‘mitasi tomonidan respublikamizdagi 514,3 mingdan ortiq oilalarda tushuntirish va targ‘ibot ishlari o‘tkazildi. Bunda nikoh yoshiga yetmagan, oila qurishga tayyor bo‘lmagan qizlar, kasb-hunar kolleji o‘quvchilarini turmushga berishga moyil bo‘lgan oilalarga asosiy e’tibor qaratildi. “Orasta qizlar”, “Ozoda qiz orasta beka”, “Oilada qiz bolaning o‘rni”, “Oila muqaddas va birlamchi tarbiya maskani”, “Oila — ma’naviyat qo‘rg‘oni” kabi mavzulardagi ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarga ham qiziqish katta bo‘ldi. FHDYo organlari ishtirokida esa

joriy o‘quv yilining o‘tgan davrida jami 1483 ta “Yosh oila maktabi” mashg‘uloti o‘tkazilib, ularda 100 mingdan ortiq o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari va oliy o‘quv yurtlari talabalari qatnashdi.

Xullas, oila, mahalla va ta’lim muassasasi hamkorligi doirasida ko‘plab xayrli ishlar ro‘yobga chiqarilmoqda. E’tiborlisi, ushbu jarayonda nafaqat mahalla yoki ta’lim muassasalari, balki barcha vazirlik va idoralar, jamoat tashkilotlari ham faol ishtirok etmoqda.

Barkamol avlod tarbiyasida maktab kutubxonalarining o‘rni

Mamlakatimizdagi ijtimoiy, iqtisodiy o‘zgarishlar yangi ta’lim strategiyasini amalga oshirishning muhim shartlarini belgilab berdi. Bu borada «Ta’lim to‘g‘risida» gi qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va Prezidentimiz I. A. Karimovning ma’naviy-ma’rifiy ishlarni keng yo‘lga qo‘yishga doir farmonlari muhim ahamiyat kasb etadi. Unda xalq ta’limi tizimi xodimlari qatorida maktab kutubxona-chilari oldiga ham muhim vazifalarni amalga oshirish kabi mas’uliyatli vazifalar qo‘yilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 20 iyundagi «Respublika aholisini axborot kutubxona bilan ta’minlashni tashkil etish to‘g‘risida»gi PQ-381-sonli qarori «Milliy, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar va milliy g‘oyani keng ko‘lamda targ‘ib qilish, xalqning madaniy-tarixiy merosidan bahramand bo‘lishini ta’minlash, ma’naviy boy va uyg‘un kamol topgan shaxsning ijodiy o‘sishi uchun imkoniyatlar yaratib berish»ni maqsad qilib berdi. Albatta, bu maqsad va vazifa-larni amalga oshirishda avvalom bor, Respublikamizdagi kutubxonalar tarmog‘iga yangi innovatsion axborot texnologiya-larni olib kirish muhimdir. Chunki busiz kutubxonalarda zamonaviy bibliografik xizmatlarni amalga oshirib bo‘lmaydi. O‘quvchi yoshlar tarbiyasida maktab kutubxonasining o‘rni beqiyosdir. Kutubxonachilarning mehnati tufayli yoshlar-da axborot olish madaniyati, mutolaa qilish, ilm-fan, tarix, milliy g‘oya targ‘iboti va Vatanga bo‘lgan muhabbat tuyg‘ulari shakllantirib boriladi. Bularning barchasi bolalar va o‘smir-larda intellektual salohiyatni oshirishda keng imkoniyatlar yaratadi. O‘zbek xalqi qadimdan jahonda kitobsevar, donishmand xalqlardan biri sifatida tan olinib kelingan. Kitobga muhabbat, uni qadrlash, o‘qishga ishtiyoq

xalqimizning qon qoniga singib ketgan. Buning isboti uchun xalqimizning merosidan, kundalik hayotidan, og‘zaki ijodi asarlaridan hamda an’anaviy tarbiya usullaridan juda ko‘plab misollar keltirish mumkin. Darhaqiqat, jahon xalqlari, shu jumladan, o‘zbek xalqi tomonidan yaratilgan betakror moddiy va ma’naviy boyliklarni ko‘zdan kechirar ekanmiz, baxt va qudratli istiqbol yo‘lida odamzot yaratgan, ehtimol, eng murakkab va buyuk mo‘jizalardan biri bo‘lgan kitob insonlarga ziyo va ma’rifat taratishda o‘ziga xos faxrli yuksak o‘rinni egallab turganligining shohidi bo‘lamiz. Xalqimiz ilm-fan, adabiyot va san’atga oid nodir qo‘lyozma –kitoblari hamda, islom dini va madaniyatini madh etuvchi adabiyotlari bilan haqli ravishda faxrlansa arziydi. Dunyoning qaysi bir mashhur kutubxonasida bo‘lmaylik, xalqimizning ulug‘ allomalari, tafakkur xazinasini yaratgan donishmandlarning qo‘lyozmalarini kitob holiga keltirib, boqiy umr bag‘ishlagan hattotlar, musavvirlar, muzahhibalar, lavohlar, sahhoflar, mujallidlarning mo‘jizakor mehnatini ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘lamiz. Bugungi kunda o‘sib kelayotgan yosh avlodni kitobga bo‘lgan qiziqishini yanada ottirish maqsadida maktab kutubxo-nalari hamda o‘quvchilar o‘rtasida ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar amalga oshirilmoqda Ushbu tadbirlarda Prezidentimiz I.A.Karimovning mamlakatimiz istiqboli va ma’naviyati ravnaqiga bag‘ishlangan o‘nlab asarlari va jahon adabiyoti rivojiga o‘z hissasini qo‘shgan qomusiy olimlarimizning hayoti va ijodini yoritishga bag‘ishlangan kitobxonlar konferensiyalarini tashkil etish va kitob taqdimotlarini o‘tkazish yaxshi samara bermoqda. Bu tadbirlarni o‘tkazishdan maqsad o‘quvchilarda vatan-parvarlik, yurtga sadoqat, mardlik, jasurlik va pok insoniy-lik fazilatlarini shakllantirish orqali, ularni barkamol va komil inson qilib tarbiyalashdan iboratdir. Maktab kutubxonachilari oldida turgan asosiy vazifa-lardan yana biri maktab o‘quvchilarida yangicha tarixiy ongini shakllantirish, milliy qadriyatlarni tiklash bo‘yicha olib borilayotgan tarbiyaviy ishlarni takomillashtirish, kutubxo nachilik – bibliografiyaga doir bilimlarni, pedagogikaga oid eng yaxshi adabiyotlarni hamda ma’naviyat, axloq-odob asoslarini o‘rgatuvchi, shuningdek, ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy bilimlar beruvchi nashrlarni targ‘ib etish lozimdir. Ayniqsa, istiqlo

mafkurasini yoshlarimiz ongiga singdirishda madaniy va ma'rifiy muassasalar qatorida mus-tahkam o'rin olgan kutubxonalarning faoliyati ahamiyatlidir. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, bu dargohda o'tkaziladigan davra suhbatlari, bahs-munozaralar, uchrashuvlar va turli anjumanlar yoshlarimizni chinakkam badiiy go'zallik ruhida tarbiyalashda muhim maskan sifatida xizmat qiladi. Kutubxona faoliyatini tashkil etishda g'oyaviy-badiiy jihatdan sayoz, milliy qadriyatlarimizga yot bo'lgan asarlar-ning yetakchi o'rin egallab olishiga yo'l qo'yimaslik muhimdir. Chunki kutubxona komil inson tarbiyasini shakllantirishdagi asosiy ustuvor maskanlardan biridir, bu maskanda dunyo adabiyoti va san'atining asl durdonalari mujassam bo'lmog'i lozim.

## **II.2. O'quvchilarning barkamol avlod bo'lib ulg'ayishida AKT'ning o'rni**

O'zbekiston respublikasida yoshlarga juda katta e'tibor qaratilib ularga har sohada katta imkoniyatlar ochib berilmoqda. Zero 2010-yil Barkamol avlod yili deb e'lon qilinishi ham bejiz emas. Xalqimiz qadimdan yoshlarga katta e'tibor qaratib, ularning barkamol avlod bo'lib ulg'ayishlarida juda katta ahamiyat berilmoqda. Bu o'rinda Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni beqiyosdir. Hozirda axborot-kommunikatsiya texnologiyalar jadal rivojlanib, har sohada o'z o'rnini egallab bormoqda. Axborot asrida axborot almashinuvi va axborot qiymati oshib bormoqda.

Shu jumladan, O'zbekistonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari tez sur'atlarda rivojlanmoqda. Uning qay sohasini olmaylik, unda olib borilayotgan ishlar tahsinga loyiqdir. Telekommunikatsiya sohasini olamizmi, mobil aloqa, internet sohasimi barcha barchasida juda katta ishlar olib borilmoqda. Internet tarmog'ida mahalliy resurslar ham kundan-kunga ko'payib bormoqda. Aholi ham ushbu resurslardan samarali fodalanib kelmoqdalar. Foydalanuvchilarning ko'p qismini albatta yoshlar tashkil etadilar. Hozirda yoshlar internet tarmog'idan va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng miqyosda foydalanib kelishmoqda. Bu o'z navbatida o'sib kelayotgan yoshlarga har tomonlama o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yoshlarga qanday imkoniyatlar eshigini ochib bermoqda va uning istiqbollari qanday? Hozirda yoshlarimiz internet tarmogidan keng foydalanib, kerakli ma'lumotlar olishyapti, elektron pochta xizmatlaridan foydalanishmoqda, kerakli adabiyotlar kitoblarni qidirib topmoqdalar, chet ellardan do'stlar orttirishmoqda va hokazo. Lekin yoshlarimiz uchun mahalliy resurslarimiz yetarlicha emasligi sir emas.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida O'zbekiston yoshlarini rivojlanishida barkamol avlod bo'lib yetishishida qanday ishlar olib borish lozim?

Kelajak yoshlari aqlli, dono, hech kimdan kam bo'lmaydigan, jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lgan, o'z fikri va milliy mafkurasiga ega bo'lgan yoshlar bo'lib yetishishlari darkor.

Ma'lumki, yoshlar ta'lim-tarbiyasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari katta rol o'ynaydi. Yosh avlodning ulg'ayishida internet tarmog'ida yoshlar uchun yaratilgan milliy resurslarimiz katta ahamiyatga ega. Shu o'rinda yoshlarimiz uchun, ularni har tomonlama yetuk inson bo'lib ulg'ayishlari uchun qanday milliy resurslar yaratish lozim degan savol tug'ilishi tabiiy hol. O'zbekiston yoshlari uchun yaratiladigan resurslarimizda milliylik ifurib turmog'i, O'zbekiston yoshlari ruhiyatiga mos bo'lmog'i darkor. Ushbu resurslar yoshlarni bilimli bo'lishlarida, ularni vatanga sadoqatli, milliy mafkuraviy o'z fikriga ega bo'lgan, o'z tarixi, o'zligidan, millatidan faxrlanadigan etib tarbiyalash, yoshlarni yagona g'oya kelajagi buyuk davlat barpo etish g'oyasida birlashtirmog'i, jahonda har sohadaga yangiliklardan, ixtirolardan, yangi bilimlar bilan yanada o'z tafakkurlarini oshirishlariga xizmat qilmog'i lozim. Buning uchun O'zbekiston yoshlari ijtimoiy tarmog'i, ya'ni O'zbekiston yoshlari portali yaratilishi muhim ahamiyatga ega. Portal quyidagi: O'quvchilar uchun elektron kutubxona, maktab darsliklari, qo'shimcha adabiyotlar, bilimlarni mustahkamlash, har bir fan bo'yicha bo'limlar, ensiklopediya, yangiliklar, O'zbekiston yoshlari yutuqlari, jahon yoshlari yutuqlari, elektron tanlovlar, debatlar, tariximiz, tengdoshlar bilan tanishish, hordiq chiqarish, mashg'ulotlar, kelajakda kim bo'lmoqchisiz va hokazo bo'limlarga ega bo'ladi. Endi portal ushbu bo'limlari qanday bo'lishi va ularning yoshlarimiz yuksalishida qanday ahamiyatga egaligi bilan tanishib chiqsak:

**O'quvchilar uchun elektron kutubxona.** Hozirda har bir viloyat va qishloqlardagi maktablarda kutubxona xizmatlari yaxshi yo'lga qo'yilgan. Hozirgi kunda yangidan-yangi adabiyotlar chiqib kelmoqda. Har doim ham kerakli adabiyotni kutubxonadan topish mushkul. Bo'lganda ham ularning soni chegaralangan. Quyidagi vaziyatda albatta o'quvchilarda kerakli adabiyotni qayerdan olish muammosi tug'iladi. Ushbu vaziyatda ularga portalning elektron

kutubxonasi katta yordamga keladi va o'quvchilar o'zlariga kerakli adabiyotni hech qanday qiyinchiliksiz qo'lga kiritadilar. Bundan tashqari, Elektron kutubxona kundan-kunga yangi adabiyotlarga boyib boradi. Uning yana bir katta yutuqlaridan biri shuki u bir vaqtning o'zida minglab kitobxonlarga xizmat ko'rsatadi va ularning bilimlarini o'stirishlarida katta xizmat ko'rsatadi.

**Maktab darsliklari.** Shunday vaqtlar bo'ladiki, o'quvchilarga ayrim darsliklar zarur bo'lib qoladi. Ular darsliklarga ega bo'lishlariga qaramay, avval o'qigan darsliklaridan nimanidir yoddan ko'tarilgan bo'lishlari yoki nimanidir aniqlashtirib olish zarurati tug'ilganda portalning maktab darsliklari yordamga keladi. O'quvchilarga qo'shimcha bilimlar olish va bilimlarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

**Qo'shimcha adabiyotlar.** Hozirda yoshlarning barkamol bo'lib yetishishlarida faqat maktab darsliklarida bilimlar yetarli bo'lmay, o'quvchilar qo'shimcha adabiyotlarga extiyoj xis etadilar. Portalning bu bo'limida o'quvchilar darsliklardan olgan bilimlarini mustahkamlashga xizmat qiladigan qo'shimcha adabiyotlar o'rin olgan bo'ladi. Bu o'z navbatida, o'quvchilarning olgan bilimlarini o'z vaqtida mustahkamlab borishlarida katta xizmat ko'rsatadi.

**Bilimlarni mustahkamlash.** Olingan bilimlar o'z vaqtida mustahkamlab borilmasa, ular o'z qiymatini yo'qotib boradi. Portalning bu bo'limi bilimlarni mustahkamlash uchun aniq fanlar bo'yicha misol va masalalar to'plamlari, qo'shimcha laboratoriya ishlari, tajribalar va amaliy mashg'ulotlar o'tkazilishida katta yordam beradi va o'quvchilarning bilimlarini amaliy jihatda mustahkamlab borishlarida katta xizmat qiladi.

**Har bir fan bo'yicha bo'limlar.** Portalning fanlar bo'yicha bo'limlari bo'lib, ularda shu fanlarni o'zlashtirishda, ularni chuqurroq o'rganish uchun o'quvchilarga yaqindan yordam beradi. Fanlar bo'yicha savol-javoblar, o'quvchilarni qiynagan savollariga javob olishlariga va o'z bilimlarini sinashga imkon beradi. Bu o'z navbatida o'quvchilarning o'zlari yoqtirgan fanlarining yetuk o'zlashtirishlariga xizmat qiladi.

**Ensiklopediya.** Kelajakda yetuk inson bo‘lib yetishishda o‘quvchilarning har sohada bilimlarga ega bo‘lishlari katta ahamiyatga egadir. O‘quvchilar har sohadagi bilimlarni olishlarida ensiklopediyalarning o‘rni juda katta. Bu borada portalning ensiklopediya bo‘limi o‘quvchilarga o‘z bilimlarni oshirib borishlarida katta xizmat ko‘rsatadi. Bu bo‘limda O‘zbekiston milliy ensiklopediyalari va har sohadagi ensiklopediyalar o‘rin egallaydi.

**Yangiliklar.** Yoshlar zamon bilan hamnafas ulg‘ayishlarida jahondagi talim, madaniyat, sport sohasidagi yangiliklaridan boxabar bo‘lishlari muhim ahamiyatga egadir. Bu borada yoshlarimizni portalimizning yangiliklar bo‘limi boxabar qilib boradi va yoshlarimizning zamon bilan hamnafas o‘sib borishlarida yaqindan yordam beradi.

**O‘zbekiston yoshlari yutuqlari.** Hech qaysi bir davlatda O‘zbekistondagichalik yoshlarga e‘tibor berilmasa kerak. Zero 2010-yil “Barkamol avlod” yili deb e‘lon qilingani ham so‘zimizning yaqqol isbotidir. Albatta yoshlarimiz ham shu e‘tibor va ishonchni oqlashga mahkam bel bog‘laganlar. Bu borada katta yutuqlarga erishib kelmoqdalar. Portalning bu bo‘limida O‘zbekiston yoshlarining erishayotgan yutuqlari haqida yoritib boriladi. Bu o‘z navbatida, yoshlarimizni yanada yuksak cho‘qqilarga erishishga undaydi. Tengdoshlarining yutuqlarini ko‘rgan yoshlar o‘zlari ham yutuqlarga erishayotgan tengdoshlari kabi ular ham yangi bir marralarga intila boshlashlariga ko‘makdosh bo‘ladi.

**Jahon yoshlari yutuqlari.** O‘z navbatida, jahon yoshlarining yutuqlaridan ham xabardor bo‘lish yoshlarimizda ham ular erishgan cho‘qqilarni zabt etish kerak bo‘lsa undan ham yuqori cho‘qqilarni zabt etishga intilish va qiziqish ortadi. Zero biz hech kimdan kam emasmiz va kam bo‘lmaymiz ham.

**Elektron tanlovlar.** Tanlovlar yoshlarimizni rag‘batlantirib borish, ularning yanada bilim olishlariga turtki bo‘lib xizmat qiladi. Yoshlarimizning o‘zlarini ko‘rsatishlariga imkoniyat yaratib beradi. Lekin tanlovlar o‘tkazish bir necha qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Tanlov ishtirokchilarini bir joyga to‘plash ularning yo‘l xarajatlari va boshqalar xarajat va qiyinchiliklar tanlovlar o‘tkazishda

muammolarni keltirib chiqaradi. Portalning elektron tanlovlar xizmatlari esa bu kabi muammolarni hal etib, o'quvchilarning ham tanlovlarda ishtirok etishdagi duch keladigan muammolardan xalos etadi.

**Debatlar.** Hozirda yoshlarning o'z fikri va mafkurasiga ega bo'lishi juda katta ahamiyatga ega bo'lib, bunda yoshlar o'rtasida o'tkaziladigan debatlar samaradorligi yuqoridir. Bunda yoshlar o'z fikrlarini bildirib, o'z g'alar fikrlari bilan ham o'rtoqlashadilar. Bu kabi debatlar yoshlarni mustaqil fikrlashga, o'z dunyoqarashlarini kengaytirishga katta xizmat ko'rsatadi. Portalning ushbu bo'limida bu kabi imkoniyatlar yaratilib beriladi.

**Tariximiz.** O'z tariximizni bilmay turib buyuk kelajak qura olmaymiz zero ota bobolarimiz erishgan yutuqlar o'z davrida jahonni larzaga solgan. Yoshlarning o'z tarixini bilishi kelajakka bo'lgan ishonchini oshiribgina qolmay, o'z ota-bobolari izidan borishlariga katta yo'l ochib beradi. Portalda bunga ham alohida e'tibor berilgan bo'lib, O'zbekiston tarixi haqida to'liq ma'lumotlar beriladi va yoshlarimizning tariximizni mukammal bilishlarida yaqindan ko'makdosh bo'ladi.

**Tengdoshlar bilan tanishish.** O'zaro fikr almashish bilimlarni mustahkamlash va yoshlarni birlashtirishga xizmat qiladi. Bu borada portalda yoshlar boshqa viloyat, tuman yoki shahardagi o'z tengdoshlari bilan tanishish, ular bilan fikr almashish imkoniyatlari ochib berilgan bo'lib, ularning hamjihatlikda fikr almashishlariga birgalikda yuksak cho'qqilarni zabt etishlariga xizmat ko'rsatadi.

**Hordiq chiqarish.** Albatta yoshlarning barkamol bo'lib yetishishlarida ularning dam olishlarini mazmunli tashkil etish katta ahamiyatga ega. Portalning bu bo'limida shu kabi masalalar ko'zda tutilgan bo'lib yoshlarning mazmunli hordiq chiqarishlariga xizmat qiladi. Milliy o'yinlarimiz, aqlni charhlovchi va boshqa shu kabi o'yinlarni o'rin olgan bo'lib yoshlarning mazmunli hordiq chiqarishlariga yordam beradi.

**Mashg'ulotlar.** Yoshlarning har tomonlama yetuk bo'lib ulg'ayishlarida qo'shimcha mashg'ulotlarning o'rni kattadir. Qo'shimcha mashg'ulotlarda

o'quvchilar o'zlariga yoqqan mashg'ulotlarga qatnashib o'z bilimlarini oshirishlari, qo'shimcha hunarlar o'rganishlari mumkin.

**Kelajakda kim bo'lmoqchisiz.** Yoshlar o'z sohalarining yetuk mutaxassislari bo'lib yetishishlari uchun avvaldan o'z kasblarini aniqlab olishlari muhimdir. Bu borada Portalning kelajakda kim bo'lmoqchisiz bo'limi yordam beradi. Bunda turli kasblar haqida to'liq yozilgan bo'lib yetuk mutaxassis bo'lib yetishish uchun nimalarga e'tibor berish kerakligi berib o'tilgan. Bu yoshlarimizning avvaldan o'zlariga mos kasb tanlashlarida yaqindan yordam beradi.

Biz yuqorida yoshlarning yetuk inson bo'lib yetishishlarida AKT'ning o'rnini O'zbekiston yoshlari portali misolida ko'rib chiqdik. Ko'rinib turibdiki, AKT sohasi yoshlarimizning har tomonlama yetuk, aqlli, bilimli, o'z fikriga ega bo'lgan, o'zligini anglagan, vataniga sadoqatli barkamol avlodlarni yetishtirishda juda katta ahamiyat kasb etadi.

«Til millat ko'zgusi», «Adabiyot yashasa, millat yashaydi» kabi purhikmat maqollar zamirida nihoyatda katta ma'no mujassam. Gap o'zbek xalqi tarixi, buguni va ertasi — buyuk kelajagi haqida ketmoqda. O'qituvchilarning, Xususanvatan tuygusi va milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari fani o'qituvchilarining asosiy dasturulamal vazifasi kamol topayotgan avlodga xalqimizning milliy qadriyatlarini, an'analarini va udumlarini har bir dars, to'garak mashg'ulotlari davomida chuqur anglatib borishdan iborat. O'quvchilarimiz ongiga buyuk tariximiz, ajdodlar merosi, xalq og'zaki ijodi, milliy an'ana va qadriyatlarimizni singdirib o'rgatishni biz ustozlar muqaddas burchimiz, deb bilmog'imiz lozim.«Vatanamiz kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, malakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro' — e'tibori avvalam bor farzandlarimizning unib — o'sib ulg'ayib, qanday inson bo'lib hayotga kirib borishiga bog'liqdir. Biz bunday o'tkir haqiqatni hech qachon unutmasligimiz kerak»- deb, yurtboshimiz o'zining «Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch» asarida aytib o'tgan fikrini O'zbekistonda faoliyat ko'rsatadigan barcha ustoz va

murabbiylar uchun da'vat deb bilaman. Zero, o'zlikni anglash milliy ong va tafakkur, avlodlar o'rtasidagi ruhiy ma'naviy bog'liqlikni anglashdan boshlanadi. Ma'lumki, o'qituvchi har bir darsida tashkiliy qism uchun vaqt ajratadi: vatan tuyg'usi, milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari kabi ijtimoiy fanlarnigina emas, balki barcha fanlarni o'qitishda yurtboshimiz olib borayotgan odilona siyosat, milliy g'oyaning barcha tamoyillari, milliy qadriyat va an'analarimiz tobora mustahkam ildiz otib borayotganligi, bunda Prezidentimiz asarlari va ma'ruzalarini o'rganish, o'quvchilar ongu — shuuriga aniq misol va dalillar asosida singdirib borilgandagina biz oldimizga qo'ygan ezgu maqsadimizni amalga oshira olamiz. Xalqimiz o'z boshidan ne — ne og'ir kunlarni, mashaqqatli hayot yo'lini kechirgan. Bugun biz davrlarning eng shodiyona davronasida, yurtboshimiz belgilab bergan yurt tinchligi, vatan ravnaqi, xalq farovonligi kabi tushunchalar o'z ifodasini topayotgan istiqlol davrida yashayapmiz. Bu kunlar o'z — o'zidan bo'lmaganligi, buning uchun xalqimiz 80-90- yillarda tahlikali hayot yo'lini bosib o'tganligi haqida fikrlar bayon etilgan «O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida» nomli asarning g'oyaviy mazmunini o'quvchilarga o'rgatib borish zarur. Shundagina o'quvchi yoshlarga «Taraqqiyotning o'zbek modeli» deb nom olgan rivojlanish yo'limiz shiddatli kurashlar, tinimsiz bahs — munozaralar va achchiq hayotiy tajribalar mahsuli ekanligini singdira olamiz. Bu orqali yoshlarimizda mustaqilligimizni qadrlash, mustahkamlash va javobgarlik hissini oshirishga erishamiz. Vatan tuyg'usi va milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari fani maktab ta'limidagi barcha o'quv fanlari bilan uzviy bog'liq. Bu fan barcha o'quv fanlarining zanjiri sifatida milliy an'analarni va qadriyatlarni o'rganish uchun ham, shuningdek boshqa o'quv fanlarini puxta o'zlashtirish uchun ham zarurdir. Chunki, ma'naviyat borliqni anglash vositasi sifatida fanlararo bog'lanishni amalga oshirishda muhim va hal qiluvchi omil hisoblanadi. Vatan tuyg'usi va milliy istiqlol g'oyasi darslarida bizning ma'naviy — merosimiz bo'lgan Mahmud Qoshg'ariyning «Devoni lug'otit turk» asaridan unumli foydalanish kerak. Xalq og'zaki ijodidan, hususan maqol, matal va qahramonlik, ezgulik, mehnatsevarlik mazmunini o'zida ifodalagan afsona va dostonlardan o'rinli

foydalanish maqsadga muvofiq. Ta'limning bosh maqsadi mukammallikni ta'minlashdan iboratdir. Dars jarayonida noan'anaviy o'yinlar tashkil etish orqali o'quvchilarni bilim samaradorligiga erishamiz. Ana shunday o'yinlarda xalq og'zaki ijodidan, Prezident asarlaridan foydalanish o'quvchilarning milliy qadriyat va an'analarni chuqur o'rganishlarini ta'minlaydi. O'qituvchi dars davomida milliy urf — odatlarimiz, an'analарimiz haqidagi maqol va hikmatlardan o'rinli foydalana olishi, yurtboshimiz olib borayotgan siyosatning xalq hayotida o'z ifodasini topayotganligi to'g'risida o'quvchilarda tasavvur hosil qilishi lozim. Nurli kelajak va o'z buyukligi sari shitob bilan borayotgan yurtimiz uchun ma'naviy-axloqiy, huquqiy tarbiyani o'zida jamlagan, milliy an'ana va qadriyatlarimizni anglagan avlod ko'plab zarur. Shuning uchun ham Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan ta'lim xodimlari oldiga ana shunday barkamol avlodni tarbiyalab yetishtirishdek sharaflı vazifa qo'yilgan. O'z o'rnida har bir ta'lim xodimi yuqorida talab etilgan masalalarni eng avvalo, o'zi puxta o'rgangan, his etgan bo'lishi kerak. Shundagina bu vazifani bajarishga salmoqliroq hissa qo'shish tayyorgarligini ko'rishimiz, yangi-yangi imkoniyatlar izlab topishimiz va ulardan unumli foydalanishni to'g'ri tashkil etishimiz mumkin bo'ladi. Bu bizning o'z vijdonimiz va xalqimiz oldidagi eng qutlug' burchimizdir. Yoshlarni ma'naviy-axloqiy, huquqiy tarbiyalashda milliy an'analar va xalq og'zaki ijodining o'rni benihoya katta ekanligini anglagan holda barcha o'qituvchilarga darslarda quyidagi tamoyillarga ko'proq e'tibor berishlarini tavsiya etamiz. 1. Darslarda milliy g'oyani singdirishda ko'rgazmali trening mashg'ulotlari o'tkazish. 2. Prezidentimiz Islom Karimovning adabiyotga oid «Adabiyotga e'tibor ma'naviyatga, kelajakka e'tibor» asaridan foydalanish. 3. O'quv mashg'ulotlarida o'zbek she'riyatini anglash orqali vatanga muhabbat, yurtga sadoqat, elga fidoiylık kabi insoniy fazilatlarini kamol toptirish. 4. O'quvchilarni milliy adabiyotni ma'naviyatning eng nodir na'munasi sifatida qabul qilishlariga erishish. 6. Vatan tuyg'usi va milliy istiqlol g'oyasi faniga insonning ma'naviy dunyosini shakllantiradigan va ma'naviy qiyofasini o'stiradigan eng samarali ta'sir ko'rsatuvchi dars sifatida yondoshish. 7. Sog'lom e'tiqodli insonlarning g'am — tashvishlarini anglaydigan, yuksak didli, barkamol

shaxsning ma'naviy dunyosini shakllantiradigan g'oyalarni o'zida mujassamlashtirgan fan milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari fani ekanligini doimo yodda tutish. 8. O'quchilarda xalqimizning boy tarixini o'zida ifodalagan adabiyot durdonalarini faqat o'qish emas, balki o'qimasdan tura olmaydigan ruhiy ko'nikma hosil qilishga harakat qilish. 9. Har bir darsda Prezidentimiz Islom Karimovning asarlaridan o'rinli va maqsadli foydalanish orqali o'quvchilarda milliy an'ana va qadriyatlar tushunchasini to'la shakllanishiga erishish. 10. Har bir o'qituvchi o'quv yili davomida ma'lum maqsad va reja asosida ochiq dars, trening mashg'ulotlar, ilmiy konferensiyalarda ishtirok etishga harakat qilib, o'zining pedagogik mahoratini davlat talabiga moslashtirib borish. Prezidentimizning asarlarigina emas, balki barcha sohada yuritayotgan siyosatlari ham mustaqil O'zbekiston taraqqiyotini ta'minlashga va bu orqali milliy qadriyatlarimiz, an'analarimizni boyitib borishga, kelajak avlodlarga bizdan ozod va obod Vatan qolishiga qaratilgan. Zamira Umarova, Namangan tumanidagi 2-maktab milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari fani o'qituvchisi

### II.3. O'quv fanlarida interfaol usullardan foydalanish orqali barkamol avlod qilib tarbiyalash

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Barkamol avlod yili Davlat dasturi to'g'risida»gi Qarorida: «... ta'lim jarayoniga yangi axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalarni, elektron darsliklar, multimediya vositalarini keng joriy etish...» bilan bir qatorda «... o'qituvchilar va murabbiylar mehnatini moddiy hamda ma'naviy rag'batlantirish bo'yicha samarali tizimni yanada rivojlantirish...» qat'iy vazifalardan biri qilib belgilangan.

Darhaqiqat, maktablarimizning moddiy bazasi keng rivojlantirilishi, darsliklar, ta'lim standartlari va o'quv dasturlari muntazam takomillashtirilib borilishi, shuningdek, o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi, mahorati va bilimdonligi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol usullarni darslarda qo'llay olishi ham juda muhimdir. U o'quvchiga puxta bilim berishi, erkin, ijodiy fikrlash ko'nikma, malakalarini hosil qila olishi ham zarur.

Takomillashtirilgan standartlar, yangi o'quv dasturlari boshlang'ich sinflardan o'quvchini erkin fikr yuritish orqali muloqotga kirisha olish qobiliyatini shakllantirishga, so'z boyliklarini oshirishga, o'qish texnikasini yaxshi egallashga, chiroyli va savodli yozish ko'nikmasini hosil qilishga, nutq madaniyatini yuksaltirishga e'tibor qaratishni taqozo etmoqda.

Shu bois ham ta'lim jarayonini insonparvarlashtirish, liberalizatsiya qilish (erkinlashtirish) demokratizatsiyalashtirish, bolaga samimiy va do'stona munosabatda bo'lish, hamkorlik va hamijodkorlikda tashkil etishni taqozo etmoqda. Qisqa qilib aytganda, o'quv jarayoni markazida o'quvchi shaxsi va qadri, ma'naviyati turmog'i lozim. O'quv jarayoni o'quvchi shaxsi, uning ma'naviyatiga qaratilgan va yo'naltirilgan bo'lishi talab etilmoqda.

Shuni e'tiborda tutish kerakki, shaxsga qaratilgan ta'lim o'quvchining o'quv-biluv mehnatini tashkil etishni harakatlantiruvchi, uning qiziqish, xohish, talab-istaklarini ro'yobga chiqaruvchi kuch bo'lib xizmat qiladi.

O`quvchi shaxsiga qaratilgan ta`lim, o`quvchining faolligini oshirish, mustaqil, ijodiy fikrlashga o`rgatish, mustaqilligini, erkinligini ta`min etish, qiziqishlari asosida (motivatsiya) ish yuritish, ichki imkoniyatlarini ishga solish, o`z qiziqishlari orqali qo`shimcha ta`lim olishga yo`llash, o`z-o`zini rivojlantirishni o`z ichiga oladi.

Interfaol ta`lim jarayonida dars o`quvchilarning o`zaro muloqotlari asosida amalga oshiriladi. Interaktiv ingliz so`zidan olingan bo`lib, «Interakt», ya`ni, Inter — bu «o`zaro», «akt» — harakat, ta`sir, faollik ma`nolarini bildiradi.

Interfaol metod — ta`lim jarayonida o`qituvchi va o`quvchilar o`rtasidagi faollikni oshirish orqali ularning o`zaro harakati, ta`siri ostida bilimlarni o`zlashtirishni kafoiatlash, shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu usullarni qo`llash dars sifati va samaradorligini oshirishga yordam beradi. Uning asosiy mezonlari — norasmiy bahs-munozaralar o`tkazish, o`quv materialini erkin bayon etish, mustaqil o`qish, o`rganish, seminarlar o`tkazish, o`quvchilarni tashabbus ko`rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo`lib ishlash uchun topshiriq, vazifalar berish, yozma ishlar bajarish va boshqalardan iborat.

Interfaollik, bu — o`zaro ikki kishi faolligi, ya`ni, bunda o`quv-biluv jarayoni o`zaro suhbat tariqasida, dialog shaklda (kompyuter aloqasi) yoki o`qituvchi-o`quvchilarning o`zaro muloqotlari asosida kechadi.

Interfaollik — o`zaro faollik, harakat, ta`sirchanlik, o`quvchi-o`qituvchi, o`quvchi-o`quvchi (sub`yekt-sub`yekt) suhbatlarida sodir bo`ladi. Interfaol metodlarning bosh maqsadi — o`q jarayoni uchun eng qulay muhit vaziyat yaratish orqali o`quvchining faol, erkin, ijodiy fikr yuritish, uni ehtiyoj, qiziqishlari, ichki imkoniyatlarini ishga solishga muhit yaratadi. Bunday darslar shunday kechadiki, bu jarayonda bironta ham o`quvchi chetda qolmay, eshitgan, o`qigan, ko`rgan bilgan fikr- mulohazalarini ochiq-oydin bildirish imkoniyatiga ega bo`ladilar. O`zaro fikr almashish jarayoni sodir bo`ladi. Bolalarda bilim olishga havas, qiziqish ortadi, o`zaro do`stona munosabatlar shakllanadi.

**DIDAKTIK  
O'YINLAR  
ORQALI.**

**EVRIKTIK  
FIKRLASH,  
IZLASH,  
TOPISH.**

**SUHBAT  
DARS  
LOYIHALA  
SH  
ORQALI.**

**INTERFA  
OL  
USULLAR  
O'Z  
XUSUSIYA  
TIGA  
KO'RA**

**MUAMMOLI  
VAZIYATNI  
HOSIL QILISH  
VA ECHIMI  
ORQALI.**

**KREATIV  
—  
IJODKOR  
LIK.**

**AKT ORQALI  
AMALGA  
OSHIRILADIGAN.**


Interfaol ta`lim o`z xususiyatiga ko`ra didaktik o`yinlar orqali, evristik (fikrlash, izlash, topish) suhbat-dars jarayonini loyihalash orqali, muamoli vaziyatni hosil qilish va yechish orqali, kreativ-ijodkorlik asosida, axborot kommunikatsion texnologiyalar yordamida amalga oshirish metodlarini o`z ichiga oladi.

Axborot kommunikatsion texnologiyalar asosida ta`lim o`z navbatida kompyuter dasturlari yordamida o`qitish, masofadan o`qitish, internet tarmoqlari asosida o`qitish, media-ta`lim metodlaridan iborat.


Boshlang`ich ta`limda o`quvchilarning yosh xususiyatlari, savodxonlik darajalari, shaxsiy tabiatlariga ko`ra didaktik o`yinlar orqali, evristik suhbatlar loyihalashtirish asosidagi metodlar keng qo`llanilmoqda. Agar o`qitish jarayonida har bir o`quvchi o`zining o`zlashtirish imkoniyati darajasida topshiriqlar olib ishlaganida u yuqori sifat va samaradorlikni ta`minlagan bo`lar edi. Bunday holatni faqat tabaqalashtirilgan ta`lim orqaligina amalga oshirish mumkin.

Didaktik o`yinli metodlar o`quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ular o`quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarni ro`yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. Bu metod o`quvchini ichki imkoniyatlarini ishga tushishiga, o`ylashga, erkin fikr yuritishga, muloqotga, ijodkorlikka yetaklaydi. Ayniqsa, unda atrof-muhit, hayotni bilishga qiziqish ortadi, uchragan qiyinchilik, to`siqlarni, qanday yengish va tanqidiy fikrlash ko`nikmalarini shakllantiradi.

Ta`lim-tarbiya jarayonida asosan o`quvchilarda ta`lim olish motivlarini, ularni turli yo`nalishlardagi qobiliyat qiziqishlarini oshiradigan, biror kasbga moyilliklarini ko`rsatadigan, didaktik o`yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.



Didaktik o`yinlar nazariy, amaliy, jismoniy, rolli, ishchaniik va boshqa yo`nalishdagi turlarga ajratiladi. Ular o`quvchilarda tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, tadqiq qilish, hisoblash, o`lchash, yasash, sinash, kuzatish, solishtirish, xulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish, guruh yoki jamoa tarkibida ishlash, nutq o`stirish, til o`rgatish, yangi bilimlar olish faoliyatlarini rivojlantiradi.




Umumiy o`yinlar nazariyasiga ko`ra, mavjud barcha o`yin turlarini tasniflashda ularni funksional, mavzuli, konstruktiv, didaktik, sport va harbiy o`yinlarga ajratiladi. Didaktik o`yin turlarini tanlashda, quydagi mezonlarga rioya qilish yaxshi natijalar beradi:

— ishtirokchilarning tarkibi bo`yicha, ya`ni o`g`il bolalar, qiz bolalar yoki aralash guruhlar uchun o`yinlar;

— ishtirokchilarning soni bo`yicha: yakka, juftlikda, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi, sinflararo va ommaviy tarzdagi o`yinlar;

— o`yin jarayoni bo`yicha — fikrlash, o`ylash, topag`onlik, harakatlar asoslangan, musobaqa va boshqalarga yo`naltirilgan;

— vaqt me`yori bo`yicha — dars, mashg`ulot vaqtining reja bo`yicha ajratilgan qismi, o`yin maqsadiga erishguncha, g`oliblar aniqlanguncha davom etadigan o`yinlar.



Ayrim didaktik o`yinli dars shakllari:

— ishchaniik o`yini darsi — mavzu bo`yicha masalalarni hal etish jarayonida o`quvchilarning faol ishtirok etishini ta`minlash orqali yangi bilimlarni o`zlashtirish mashqi;

— rolli o`yin darsi- mavzu bo`yicha masalalarni o`rganishda o`quvchilarga oldindan ma`lum rollarni taqsimlash va dars jarayonida shu rollarni bajarishlarini tashkil etish asosida bilimlarini mustahkamlash;

— boshqa darslarga doir va integratsiyalash uchun qulay bo`lgan mavzular bo`yicha tashkil qilingan dars bo`lib, o`quvchilarning turli fanlarga qiziqishlarini orttirib, ta`lim jarayonidagi faollikni ta`minlaydi. Bularning bari o`quvchilarga fanlararo bog`liqlikni o`rgatish orqali ularda olam tuzilishining ilmiy asoslarini to`liq idrok etish va ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish, ijodiy tafakkurlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

## VAQT ME'YORI BO'YICHA


**DARS**

**MASHG'ULOTNI  
NG AJRATILGAN  
QISMI**

**O'YIN  
MAQSADIGA  
ERISHGUNCHA**

**G'OLIBLAR  
ANIQLANGUNCHA**

Darslarni nechogʻli qiziqarli, foydali va samarali tashkil etish oʻqituvchilarning ijodkorligi, tashabbuskorligiga bogʻliq. Xulosa qilib aytganda, oʻqituvchi faqat oʻqitibgina qolmay, oʻquvchini mustaqil mutolaa qilish orqali taʼlim olish koʻnikmalarini shakllantirishi, oʻquvchilarni darslik, qoʻllanma, internet xabarlari, manbalarni tahlil qilish orqali bilim olishga oʻrgatishi, oʻquvchi taʼlim jarayonida eshitib, koʻribgina qolmay, balki dars mavzusi, mazmunini oʻrganishda uni faol ishtirokchisiga aylanishini taʼminlashi zarur. Agar oʻqituvchi interfaol taʼlim mazmunini va mohiyatini, uning metodlarini oʻqib-oʻrganib, oʻzlashtirib, oʻz pedagogik faoliyatiga joriy qila olsa, takomillashgan Davlat taʼlim standartlarini va modernizatsiya qilingan oʻquv dasturlarini toʻla oʻzlashtirishlarini kafolatlaydi, sifat va samaradorlikka erishishni taʼminlaydi.



Demakki, har bir o`qituvchi o`z o`quvchisini dars jarayonida faollashtira olsa, bolalarning o`qish, o`zlashtirish, bilim, ko`nikma, malakalarni egallash darajasi yuqori ko`rsatkichlarni tashkil etadi.

## UMUMIY XULOSA VA TAVSIYALAR.

Ta'lim jarayonidagi islohotlar ko'лами soat sayin o'zgarib, rivojlanib bormoqda.

Shuningdek tabiiy ehtiyoj, ya'ni ishlab chiqarish jarayonlariga munosabatlarning o'zgarish oxir oqibatda o'quv fanlariga bo'lgan munosabatni ham o'zgartirib bormoqda.

Chunki bilim olish uchun inson dastlab fanlar yo'nalishida elementar tasavvurdan asta-sekinlik bilan kasbiy fanlar tizimigacha o'qib-o'zlashtirib boradi. Shuning uchun boshlang'ich sinflarda o'quv fanlarini o'qitish barobarida kelgusida o'qitiladigan, hayotda asosiy jarayon va o'rinda ega bo'ladigan o'quv fanlarining asosiy poydevori yaratiladi.

E'tibor qilib kuzatadigan bo'lsak, boshlang'ich sinflarda qaysi o'quv fanini o'zlashtirish jarayoni oson va mukammal bo'lgan bo'lsa, ushbu fanni o'qishda kelajakda qiyinchilikka duchor bo'lmaydi.

Yana bir holat boshlang'ich sinf o'quvchilari tomonidan fanni o'zlashtirishdagi yutuq ham, kamchilik ham ta'limning keyingi bosqichida albatta o'z hosilasini berar ekan. Ya'ni ona tilida tinish belgilari, yoki ayrim harflarni xato yozib o'rgangan, kelishik qo'shimchalarini o'z o'rnida qo'llay olmagan o'quvchi bola kelajakda ham ushbu xatolarni takrorlayveradi.

Biz o'z bitiruv malakaviy ishimizni kuzatish ishlarini olib borishda yana bir narsaning ya'ni o'quvchilarning fanlarga bo'lgan qo'iqishlari ham bir xil emasligini, bu esa o'quvchida tug'ma ehtiyoj-qiziqish o'quv fanlariga bo'lgan munosabatlariga ham namoyon bo'lishiga yana bir bor ishonch hosil qildik.

O'quvchida qanday munosabat bo'lsa, ham boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quv fanlarini puxta o'zlashtirishlari uchun har bir o'quvchi bilan alohida ishlashi lozim ekan.

Yuqoridagi xulosalarimiz asosida quyidagicha tavsiyalarni aytib o'tishni maqsadga muvofiq deb hisobladik:

Farzandini maktab partasiga olib kelgan har bir ota-ona o'quvchi-bolaning kundalik topshiriqlarni qanday bajara olayotganligini uzluksiz nazorat qilib, o'qituvchi bilan ushbu holatni tahlil qilib borishi lozim.

Har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z o'quvchilarining har biriga individual yondashib o'zlashtirishda qiyinchilikka uchrashlari sababini aniqlab olish lozim.

Maktabga ilk qadam qo'ygan birorta o'quvchi yo'qki o'qishga yozishga qiziqmasa, shuning uchun o'qituvchi boshlang'ich sinflarda ko'proq o'yin darslarni tashkil etib borsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Agar ota-ona va o'qituvchining birgalikdagi faoliyati ham o'quvchi-bolaning o'zlashtirishdagi nuqsonni tuzata olishsa, unda logoped-defektolog, ruhshunos ko'rigiga olib borib, o'quvchidagi nuqsonni bartaraf etishga harakat qilish lozim bo'ladi.

Umuman olganda har bir fan inson hayotida o'ziga xos o'ringa egaligini tushuntira olgan o'qituvchi o'quvchilarida o'quv fanlariga nisbatan yaxshi munosabatni, qiziqishini shakllantira oladi deb o'ylaymiz.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.:O'zbekiston, 1997. 283 b.
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. -T.O'zbekiston, 1998.
3. Karimov I. A. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis IX sessiyasida so'zlagan nutqi. «O'zbekiston ovozi», 1997 yil. №9
4. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. Ma'ruzalar, nugqpar, suhbatlar. -T.: O'zbekiston, 1995. -271 b.
5. Karimov I.A. O'zbekiston: Milliy Istiqgyul, iqtisod, siyosat, mafkura. -T.: O'zbekiston, 1996. -364 b.
6. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 13 tomlik, T.2 -T.: O'zbekiston, 1996. -382 b.
7. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. -T.: 3 -T.: O'zbekiston, 1996. -366 b.
8. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. T.4. -T.: O'zbekiston, 1996 -349 b.
9. Karimov I.A. Oila farovonligi - millat farovonligi. //Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T.6. -T.: 1998. -429 b.
10. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash - davr talabi. -T.: 5 -T.: O'zbekiston, 1997. -384 b.
11. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. -T.: 6 -T.: O'zbekiston, 1998. -429 b.
12. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. -T.: O'zbekiston, 1999.-686 b.
13. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmokda. -T.: O'zbekiston, 1999 -48
14. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. 13 tomlik, T.8. -T.: O'zbekiston, 2000. -526 b.

15. Karimov I.A. Milliy Istiqlol mafkurasi - xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchidir: «G'GOOKOK»gazetasi muxbiri savollariga javoblar. /Yuzod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. T.8. -T., 2000. -526 b.
16. Karimov I.A. Olloh qalbimizda, yuragimizda. -T.: O'zbekiston, 2000.-16 b.
17. Karimov I. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. -T.: O'zbekiston, 1995, -74 b.
18. Karimov I.A. Donishmand halqimizning mustahkam irodasiga ishonaman. (Prezident I.A. Karimovning «Fidokor»gazetasi muxbirining savollariga javoblari.) // Halq so'zi, 2000, 10 iyun.
19. Karimov I.A. Ya budu posledovatelyn v svoix deystviyax // Tashkentskaya pravda. -1992. -22 yanv.
20. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. -T.: O'qituvchi, 1992. -160 b.
21. Behbudiy ma'rifatparvar adib: Metodik-bibliografik qo'llanma/ Tuzuvchi G.Axmedova; Mas'ul muharrir A.Tursunov. -T.: 2004.
22. Bobir Z.M. Boburnoma. -T.: O'z FA nashr., 1960. -513 b.
23. Bo'ronov Q.B. Tasavvuf falsafasi xususida. -T.: Yozuvchi, 2000. -40 b.
24. Mavlanov A.A. Hozirgi zamon fanida inson omilining umumkonseptual nazariyasi muammolariga doir //O'zbekistonda ijtimoiy fanlar. -T.:2002. №1, 30-31 b.
25. Ibragimov R. Boshlang'ich maktab o'quvchilarida bilish, faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari. Diss. T., 2001.
26. Maxmudov T. «Avesto» haqida. -T.: Sharq, 2000, -64 b.
27. Milliy Istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. -T.: O'zbekiston, 2001. -80 b.
28. Muminov I.M. Iz istorii razvitiya obshchestvenno-filosofskoy mgsliv v Uzbekistane konsa XIX i nach. XX vv. -T.: Gosizdat, 1957. -S. 214.

29. Mustaqil O‘zbekiston ta’limi. /Tuzuvchilar: J.G‘.Yo‘ldoshev va boshq. -T.: Sharq, 1997, 3 b.
30. Musurxmonova O. Oila ma'naviyati asoslari. -T.: O‘qituvchi, 1999.
31. Ochilova N.M. Talabalarda pedagog odobi fazilatlarini shakllantirish: Ped.fan.nom.diss. – Qarshi: PFNTI. 2006. 154 b.
32. Yusuf Xos Xojib. Kutadg‘u bilig. -T.: Yulduzcha, 1989. -192 b.
33. Yassaviy A. Devoni hikmat. -T.: G‘.G‘ulom, 1992. -208 b.
34. Yassaviy A. Hikmatlar. -T.: Adabiyot va san'at, 1991. -256 b.
35. Yassaviy A. Devoni hikmat. -T.: G‘.G‘ulom, 1992. 208 b.
36. Hakim at-Termiziy. Hadislar //Sharq yulduzi. 9-son.

#### **INTERNET SAYTLARI**

35. Zorkaya N. «Knijnoe chtenie v postrepstroyku: popitka diagnoza». [www.ryss.ru/journal](http://www.ryss.ru/journal) internet resurs bazasi. 22 sentyabr, 1997.
36. Tarasenko V.V. Poznanie kak fraktalnoe blujdenie v mire. /Internet sayt: WWW. Jurnal.ru /perogodavariacii.htm. Proekt granta pri podderjke RFFI: grant № 98-06-80282.

## MUNDARIJA:

	KIRISH.....	3-5-bet
1-BOB.	BARKAMOL AVLOD TARBIYASI MUAMMOSI.....	6-24-bet
1.1.	Barkamol avlod taraqqiyoti dasturi.....	6-24-bet
1.2.	Ta’lim-tarbiyaning zamonaviy tashkiliy shakllari.....	25-30-bet
<b>2-BOB.</b>	<b>BARKAMOL AVLOD TARBIYASIDA O’QUV FANLARIDAN FOYDALANISHNING SHAKL VA USULLARI.....</b>	<b>31-37-bet</b>
<b>2.1.</b>	Barkamol avlod tarbiyasi istiqbollari.....	31-37-bet
<b>2.2.</b>	O’quvchilarning barkamol avlod bo’lib ulg’ayishida AKT’ning o’rni.....	38-46-bet
<b>2.3.</b>	O’quv fanlarida interfaol usullardan foydalanish orqali barkamol avlod qilib tarbiyalash.....	47-56-bet
	UMUMIY XULOSA VA TAVSIYALAR.....	57-58-bet
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	59-61-bet
	ILOVALAR	